

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida

UDK 78:371,3

ISOMIDDINOV UY'G'UN NURUDDINOVICH

**MUSIQA TINGLASH JARAYONIDA O`QUVCHILARNI
MUSIQANI IDROK ETISH KO`NIKMA VA MALAKALARINI
SHAKLLANTIRISH.**

5A111101-Musiqiy ta'lim mutaxassisligi

**MAGISTR AKADEMIK DARAJASINI OLIH UCHUN YOZILGAN
DISSERTATSIYA**

**Ish ko'rib chiqildi va himoyaga
ruxsat berildi.**

**“Musiqqa o'qitish metodikasi va
xalq cholg'u asboblari” kafedrasini
mudiri dot. E.K.Jalilov_____**

Ilmiy rahbar:

dots. I. Quدراتov_____

SAMARQAND -2015

Mavzu: Musiqa tinglash jarayonida o`quvchilarni musiqani idrok etish ko`nikma va malakalarini shakllantirish.

Reja:

Kirish.

I-BOB. Musiqa darslarini faoliyatlar tizimida tashkil etishning ilmiy nazariy asoslari.

1.1. Musiqiy faoliyatlar bo`yicha o`quv mashg`ulotlariga qo`yiladigan talablar mohiyati.

1.2. Musiqa tinglash musiqi darslarida yetakchi faoliyat sifatida.

Birinchi bob bo`yicha xulosalar.

II-BOB. Musiqa tinglash faoliyatida olib boriladigan ta`limiy-tarbiyaviy ishlar mazmuni.

2.1. Musiqa tinglash o`quvchilarda musiqi idrokini shakllantirishning muhim omili.

1.1. Musiqa tinglash jarayonida o`quvchilarning musiqani idrok etish ko`nikma va malakalarini shakllantirish uslublari.

Ikkinchi bob bo`yicha xulosalar.

III-BOB. Musiqa tinglash faoliyatida musiqi idrokini shakllantirish amaliyoti va uning samaradorligi.

3.1. Musiqa tinglash jarayonida musiqi idrokini shakllantirish yuzasidan amaliy tajribalar mohiyati.

3.2. Tajriba-sinov ishlari natijalari va uning matematik-statistik tahlili.

Uchinchi bob bo`yicha xulosalar.

Umumiy xulosa va tavsiyalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

Ilovalar.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Shaxsning har tomonlama barkamol inson bo`lib shakllanishida, ijtimoiy faolligida musiqa san`ati alohida o`rin tutadi. Musiqa san`ati insonning hayotini go`zallashtiradi, uni olamni go`zallik qonunlari bilan anglashga o`rgatadi, go`zallik yaratishga, ijodkorlikka ilhomlantiradi. Har qanday kishida ijodiy mehnat qilish ko`nikma va malakalarni tarkib topdirmasdan uni yetuk shaxs sifatida kamol toptirish mumkin emas. Musiqa atrofimizdagi voqelikning hamma ko`rinishlarini yoritadi, inson qalbining o`ziga xos “ Badiiy ifoda tili” sifatida uning g`am tashvishi, quvonchini, ruhiyati, orzu-intilishlarini o`ziga xos tarzda tasvirlaydiki, uni tinglay bilish va tushinish estetik madaniyatning eng muhim belgilaridandir.

Musiqani, unda ifodalangan voqelik, obrazlilik, hissiy kechinmalar, xayoliy tasavvurlar, hodisalar mohiyatini idrok etish musiqiy obrazning inson ongidagi in`ikos qilishi, gavdalanish jarayonidir. Bu jarayon asosida musiqa asarini baholovchi munosabat yotadi.

Idrok etishning boshqa turlari singari musiqani idrok etish ham faol xarakterda bo`lib, unda eshitish a`zolari bilan birga tasavvur, xayol, sezgi, emotsional hissiyot kabilar muhim ahamiyat kasb etadi. [26]

Musiqiy idrokni shakllantirish, rivojlantirish musiqiy estetik tarbiyaning eng muhim masalalaridan biri sifatida pedagog-psixologlar, musiqachilar, san`atshunos olimlarning diqqat markazida bo`lib kelgan. Bu muammo xususida ko`plab psixolog, pedagoglar, tarbiyachi va metodistlar o`z tajriba, kuzatuvlari asosida o`z fikr-mulohazalarini bildirishgan. Shu o`rinda taniqli rus pedagog musiqashunosi V.T. Lixachevning quyidagi so`zlarini keltirish o`rinli bo`ladi: “Estetik tarbiyaning mohiyati bolada obrazli, g`oyaviy-hissiy idrokni, san`at hodisalari va voqelikka munosabatni, ijodiy qobiliyatni, badiiy didni, “go`zallik qonunlari bo`yicha” faoliyat va

hatti-harakat ko`nikmalari hamda malakalarini shakllantirish va rivojlantirishdir”.¹

Bizga ma`lumki, musiqa asosan tinglash orqali idrok etiladi, lekin, musiqani hamma tinglashi mumkin, ammo to`la to`kis musiqiy idrok qilish hammada ham bir xil bo`lmaydi. Musiqiy idrok hamma vaqt uni estetik baholash bilan va musiqiy asarning mazmuni, mohiyati, undagi obraz, voqelik, hissiy kechinmalarni uning ifoda vositalari uyg`unligida anglash bilan bog`liq bo`ladi.

Bundan shunday xulosakelib chiqadiki, musiqa idrokisiz musiqa tarbiyasi, ta`limining sifati, ahamiyati haqida barcha gaplar behudadir. Chunki, har qanday asarda ma`lum bir g`oyaviy-badiiy mazmun, insonni turli hayotiy kechinmalari, his-tuyg`ulari, muayyan voqelik o`z badiiy in`ikosini topadi va musiqiy tovushlar orqali ifodalanadi.

Musiqiy-estetik tarbiyaning eng muhim, asosiy maqsadi esa birinchi galda bolalarda musiqiy idrokni shakllantirish va rivojlantirishdan iboratdir. Xo`sh, musiqiy idrokni qanday rivojlantirish mumkin? Mazkur tadqiqod mazmunida mazkur muammoning ilmiy, uslubiy, psixologik va pedagogik asoslarini yoritib berish asosiy maqsad qilib olindi.

Ma`lumki, umumta`lim maktablarida musiqa darslari beshta o`zaro bir-biriga bog`langan musiqiy faoliyatlar uyg`unligida olib boriladi. Ushbu faoliyatlar tarkibida “Musiqa tinglash” yetakchi faoliyat sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, har bir faoliyatda musiqa asari avvalo tinglanadi. Masalan, qo`shiq kuylash faoliyatida o`rganiladigan qo`shiq avvalo tinglanadi, so`ngra o`rganiladi. Musiqa savodi faoliyatida ham nazariy qoidalar musiqa asari ijrosi bilan bog`lab tushintiriladi.

Musiqaga mos harakatlar bajarish, bolalar cholg`u asboblari jo`r

1. ¹В. Т. Лихачев. общие проблемы воспитания школьников. - М.: просвещение, 1979, 123-бет.

bo`lish faoliyatlarida ham musiqa asarini tinglash orqali muayyan vazifalar bajariladi. Musiqa tinglash jarayonida esa musiqa tinglangach u haqidagi suhbat, tushintirish, sharhlash, savol- javob, mustaqil topshiriqlar berish, ularni javoblarini muhokama qilish, taasurotlarni o`rtoqlashish, ifoda vositalari, janri, xarakteri, yaratilgan davri, ijro xususiyatlari haqidagi ta`riflar orqali musiqani idrok etishga erishiladi. Ushbu jarayonda musiqa o`qituvchisining pedagogik, psixologik jihatdan tayyorgarligi, malakaviy tajribasi, ijodiy intiluvchanligi, tashabbuskorligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Albatta, musiqiy idrokni yetarli darajada shakllantirish, rivojlantirish ta`kidlab o`tilgan komponintlarni amalga oshirish bilan cheklanmaydi. Bo` o`rinda yana ko`plab omillar o`quvchilarning musiqani idrok etish ko`nikma va malakalarini pedagogik talab va maqsadga muvofiq tarzda shakllantirish imkonini beradi, bu narsa alohida pedagogik muammo sifatida ilmiy tadqiq etilmaganligi biz tomonimizdan tanlangan tadqiqod mavzusini o`ziga xos dolzarblik kasb etishini belgilaydi.

Muammoning o`rganilganlik darajasi. Musiqa pedagogikasida musiqiy qobiliyatlar muammosi, uning psixologik asoslari ancha keng o`rganilgan. Musiqiy qobiliyatlar bu ko`plab o`ziga xos tarzda namoyon bo`ladigan musiqiy “sifatlar” ning keng qamrovli majmuasidan iborat bo`lib, ular ichida musiqani anglash, tinglay olish, tinglashni nazorat qilish, musiqiy xotira, shuningdek, diqqat, xotira, musiqani badiiy emotsional his etish va maxsus ijrochilik qobiliyatlari kiradi.

Musiqiy qobiliyatlarning eng muhimlaridan biri musiqani anglashdir. Psixologiya fanida uni musiqani idrok etish, uni go`zalligi va ifodaliligini his qilish, muayyan badiiy mazmuni tasavvur qilish, uni o`z hissiyot va kechinmalari bilan bog`lash deb tushiniladi. Shu bois ham biz tadqiqotimiz mavzusini tanlashda musiqiy idrok, musiqa ta`limi va tarbiyasi jarayonida uni shakllantirish, rivojlantirish masalalari yoritilgan ko`plab pedagogik,

psixologik adabiyotlar, ilmiy tadqiqot ishlari, ilmiy uslubiy manbalarni o`rganib chiqdik. Jumladan, insoniyat yosh avlodni kamolga yetkazishda juda qadimdan ohang va so`z yordamiga tayanib kelganligi, musiqaning inson ruhiyatiga, aqliy, axloqiy, jismoniy kamolotiga ta`siri, uni inson ma`naviyatiga, ta`lim-tarbiyasi mazmuniga singdirish masalalaribuyuk qomusiy olimlar Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Kavkabiy, Az Zamaxshariy, Ro`dakiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Komil Xorazmiy kabilar asarlarida yoritilgan.

Pedagog olimlar O. Musurmonova, S. Nishonova, U. Mahkamov, S. X. Fayzulina, M. Quronov, Z. Qosimova, D. Djamolova, D. Soyipovalarning ilmiy tadqiqodlarida estetik tarbiyaning nazariy asoslari, ta`limning turli bug`unlarida adabiyot, san`at vositalari orqali estetik tarbiyaning tashkil etishni pedagogik asoslari haqida qimmatli fikrlar bildirilgan.

Pedagog olim H. Nurmatovning olib borgan tadqiqot ishida [20] umumta`lim maktablarining boshlang`ich sinflarining musiqa mashg`ulotlarida o`quvchilarni estetik tarbiyalash, shu jarayonda ularning musiqiy qobiliyatlari, xususan musiqiy idrokini shakllantirishning muhim omillari tahlil qilingan.

B. Azimov, J. Najmitdinovlarning ilmiy ishlarida yoshlarni musiqa, xususan xalq musiqasi vositasida estetik tarbiyalashning pedagogik shart-sharoitlari tadqiq etilgan [41.42.]

E. M. Fayzullayevning “Bo`lajak musiqa o`qituvchilari badiiy didini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari” mavzusidagi dissertatsiya ishida o`zbek mumtoz musiqa asarlari vositasita bo`lajak musiqa o`qituvchilarning badiiy didini shakllantirish imkoniyatlari, ish usul, shakl, vositalari o`rganilgan. [25]

I. Qudratovning “ Talabalarni xalq qo`shiqlari vositasida estetik

tarbiyalash” [21] nomli monografik asarida xalq musiqasining tarbiyaviy ta`sirchanlik xususiyatlari, ulardan estetik tarbiyada foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari ochib berilgan. D. Soipovaning “ Musiqiy-nazariy bilimlarni o`zlashtirish jarayonida o`quvchi shaxsini shakllantirish” nomli [38] tadqiqot ishida musiqa darslarida o`quvchilarni musiqiy-nazariy savodxonligini takomillashtirish orqali ularni musiqa madaniyatini shakllantirish, bu jarayonni samarali kechishidagi psixologik jihatlarga alohida e`tibor qaratilgan.

Musiqiy idrok, musiqiy eshituv, diqqat, xotira, xayol, fantaziya kabilar o`z o`rnida psixologik omillar sanaladi. Shu ma`noda ko`plab xorijlik psixolog olimlar musiqa san`ati, uning inson ruhiyatiga ta`siri, musiqiy qobiliyatlar, ularni tarbiyalash, rivojlantirish, takomillashtirish xususida qimmatli izlanishlarni amalga oshirishgan. Jumladan, taniqli rus olimi V.T. Lixachev “ O`quvchilarni tarbiyalashning umumiy masalalari” asarida tarbiya turlari, ta`lim-tarbiya tizimida ularning ahamiyati, bu o`rinda pedagog tarbiyachilarning vazifasi kabi masalalar bilan birga musiqiy estetik tarbiyaning ilmiy-nazariy va psixologik asoslari haqida asosli fikrlar bildiradi.

S. L. Rubinshteynning “ prinsipi i puti razvitiya i psixologiya” nomli asarida [27] musiqiy qobiliyatlar muammosini psixologiya fanining eng muhim ilmiy tadqiqot muammolaridan biri sifatida tahlil qiladi, shu o`rinda musiqiy idrokning mohiyati uning insonni estetik kamol topishi bilan bog`liqligi, aqliy qobiliyatni esa aqliy barkamollik masalasi bilan uyg`unligi, musiqiy idrok o`z rivojida musiqiy did, musiqiy tafakkur, dunyo qarashni rivojlanishida asosiy zamin, asos bo`lib xizmat qilishini ilmiy dalillar asosida yoritadi.

Taniqli olim Ye. Efruzining tadqiqoti musiqani faol, yaxlit idrok etish

va muayyan darajada chalishni tarbiyalash masalalarini o`rganishga qaratilgan. [28]. Efruzining ta`limotida misiqiy eshitish orqali uni idrok etish ko`nikma va malakalarini rivojlantirishga yo`naltirilgan ish usullari tahlil qilingan. Bu o`rinda dastlabki musiqani eshitish, eshitib chalish, cholg`u asbobiga ko`chirish, o`quvchini ichki eshituvini rivojlantirish kabilarga alohida diqqat qaratilgan.

Taniqli pedagog-olim musiqachi-ijrochilar D. Kabalevskiy, B.

Asafiyev, V. Shatskaya, O. Praksinalarning ilmiy asarlari, maqolalarida maktabda musiqa o`qitishning mazmuni muayyan bilimlar majmuini shunchaki o`zlashtirish bilan cheklanib qolmasligi, bunday holat jamiyatning tobora ortib borayotgan talablarini qondira olmasligiga, bolalarda chinakam musiqa madaniyatini shakllantirishning eng zarur komponentlari: musiqiy idrok va musiqani baholash, to`la qonli musiqiy did, ehtiyoj va qiziqishlardan iboratligi ta`kidlanadi. [29, 30, 31].

D. Rajabovanning “ Fortepiano mashg`ulitlari” nomli tadqiqot ishida fortepiano cholg`usini o`rganish mashg`ulotlarida o`quvchilar bilan olib boriladigan pedagogik faoliyatning eng muhim bosqichlari, shu jarayonda o`quvchilarning musiqiy qobiliyatlari, musiqiy eshitish, idrok, ritmni his etish, emotsional ta`sirchanlik kabi jihatlar ustida ish olib borish masalariga keng o`rin berilgan.

Ko`rib chiqilgan ilmiy, uslubiy manbaalar, ilmiy tadqiqotlarda biz tomonimizdan tanlangan mavzuning ayrim jihatlariatroflicha tadqiq etilgan bo`lsada, ular aynan “ Musiqa tinglash jarayonida o`quvchilarning musiqani idrok etish ko`nikma va malakalari shakllantirish” degan nomlanishda, alohida ilmiy tadqiqot mavzusi sifatida o`rganilmagan degan xulosaga kelishimizga sabab bo`ldi.

Tadqiqot maqsadi: Musiqa tinglash jarayonida o`quvchilarning musiqani idrok etish ko`nikma va malakalarini shakllantirishning uslubiy tizimini ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti: Musiqa darslarining musiqa tinglash faoliyatida o`quvchilarning musiqiy idrok ko`nikma va malakalarini shakllantirish jarayoni.

Tadqiqot predmeti: Musiqa tinglash jarayonida o`quvchilarning musiqani idrok etish ko`nikma va malakalarini shakllantirishga yo`naltirilgan pedagogik faoliyat mazmuni.

Tadqiqot vazifalari:

1, Mavzuga oid musiqiy-pedagogik, san`atshunoslik, musiqa psixologiyasi, estetik tarbiyaga daxldor adabiyotlar, tadqiqotlarni o`rganish orqali musiqiy idrokni shakllantirishning nazariy, uslubiy asoslarini aniqlash.

1. Musiqiy idrok etish ko`nikma va malakalarini shakllantirishga pedagogik yondoshuvlarning mavjud holati, tajribalarni o`rganish, tahlil qilish.

2. Musiqa tinglash jarayonida musiqani idrok etish ko`nikma va malakalarini rivojlanishini o`ziga xos psixologik omillarini aniqlash.

3. Musiqiy idrokni shakllantirish, rivojlantirishning samarali usul, vositalarini aniqlash va ularni samaradorligini belgilovchi mezonlarini ishlab chiqish.

4. Musiqiy idrokni shakllantirishning ilmiy, uslubiy asoslari bo`yicha ilmiy asosli tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot metodlari: Ilmiy-uslubiy, ilmiy tadqiqotlar, estetik tarbiyaga daxldor manbalarni o`rganish, tahlil qilish, umumlashtirish, xulosalash, kuzatish, savol-javoblar, anketa-so`rovlar o`tkazish, suhbat, intervyu, pedagogik eksperiment, matematik statistika.

Tadqiqotning ilmiy farazi: Musiqa tinglash jarayonida o`quvchilarning musiqani idrok etish ko`nikma va malakalarini shakllantirish jarayoni samarali bo`ladi. Agarda: Musiqa darslarining musiqa tinglash faoliyatida o`quvchilarni musiqani idrok etish ko`nikma va malakalarini shakllantirishning pedagogik omillari aniqlansa va ularni amaliyotga tadbiiq etish texnologiyasi yaratilsa; musiqiy idrokni shakllantirish, rivojlantirishga oid amaliy tajribalar umumlashtirilgan holda ushbu faoliyatni yanada takomillashtirishga yo`naltirilgan ilmiy asosli tavsiyalar ishlab chiqilsa; musiqa tinglash faoliyatini nazariy, uslubiy jihatdan to`g`ri tashkil qilishga erishilsa hamda musiqiy idrokni musiqiy qobiliyatlarni boshqa turlari bilan o`zaro uyg`un rivojlantirishni etiborda tutgan holda ish tutilsa.

Himoyaga olib chiqiladigan holatlar:

1. Musiqa tinglash jarayonida o`quvchilarni musiqani idrok etish ko`nikma va malakalarini shakllantirish dolzarb pedagogik muammo ekanligi.
2. O`quvchilarni musiqiy idrokini shakllantirishni ta`minlovchi ish usul, shakl, vositalari.
3. Musiqa darslarida o`quvchilarni musiqiy idrok ko`nikma va malakalarini shakllantirishning psixologik, pedagogik va texnologik o`ziga xos xususiyatlari.
4. O`quvchilarda musiqiy idrokni shakllanganlik darajasini aniqlovchi mezonlar.
5. Musiqa tinglash jarayonida o`quvchilarni musiqani idrok etish ko`nikma va malakalarini shakllantirishga oid metodik tavsiyalar.

Ishning ilmiy yangiligi:

Umumta`lim maktablari “ musiqa madaniyati” darslarida musiqa tinglash faoliyati negizida o`quvchilarni musiqiy idrokini shakllantirishga oid ilmiy tadqiqotlar natijalari, tajribalar umumlashtirildi.

- Musiqa tinglash jarayonida musiqiy idrokni shakllantirish muammosi mustaqil tadqiqot predmeti sifatida o`rganildi;
- Musiqa pedagogikasi nazariyasi va metodikasi musiqiy idrokni shakllantirish va rivojlantirishga oid yangicha ish uslub va vositalari, qarashlar, xulosalar bilan boyitildi;
- Musiqiy idrokni shakllantirishga yo`naltirilgan pedagogic faoliyatning shart-sharoitlari ochib berildi;
- Musiqa tinglash jarayonida o`quvchilarni musiqani idrok etish ko`nikma va malakalarini shakllantirishga oid ilmiy asosli xulosa va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning metodologik asosi bo`lib xizmat qildi: O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O`zbekiston Respublikasining “ Ta`lim to`g`risida” gi qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Maktab ta`limini rivojlantirish umummilliy davlat dasturi, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining ta`lim-tarbiyaga, shu jumladan musiqa san`atini rivojlantirishga oid qaror, farmoyishlari, nutq, ma`ruzalari, umumiy o`rta ta`limning musiqa fani bo`yicha Davlat Ta`lim Standarti va o`quv dasturi, musiqa o`qitish nazariyasi, metodikasi, shuningdek estetik tarbiyaga oid falsafiy, tarixiy, ilmiy-uslubiy, psixologik manbaalar.

Tadqiqot natijalarining ilmiy amaliy ahamiyati:

- Tadqiqot natijalarida umumiy o`rta ta`lim maktablarining musiqa madaniyati darslarining musiqa tinglash faoliyatida o`quvchilarni musiqaviy idrokini yuqori darajada shakllantirish imkonini beruvchi texnologik mexanizm yaratildi.
- Musiqa tinglash jarayonida o`quvchilarni musiqani idrok etish ko`nikma va malakalarini shakllantirish holati, mavjud muammolar tahlil qilindi.
- O`quvchilarning musiqaviy idrokini rivojlantirishning samarali deb

topilgan usul, shakl, vositalari amaliy tajribalarda sinovdan o`tkazildi.

- Musiqani idrok etish ko`nikma va malakalarini shakllantirish bo`yicha tavsiyalar ishlab chiqildi va amaliyotga tadbiiq etildi.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga tadbiiq etilishi va maqullanganligi:

- Tadqiqot ishi natijalari Samarqand shahri, Urgut tumani umumta`lim maktablarining musiqa madaniyati darslarida:

- Umumta`lim maktablarining, maktabdan tashqari ta`lim muassasalari musiqa o`qituvchilari, rahbarlari faoliyatida qo`llanilmoqda.

- Tadqiqot natijalari va uning amaliy mazmuni Samarqand shahar XTB, Urgut tumanida o`tgan ilmiy-amaliy seminar, Samarqand Davlat Universiteti Professor-o`qituvchilari va talabalarining, magistrantlarining konferensiyalaridagi ma`ruzalarda bayon qilindi va ommalashtirildi.

Dissertatsiya ishining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog`liqligi.

Dissertatsiya ishi “Ta`lim to`g`risida”gi qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, umumta`lim maktablari musiqa ta`limi va tarbiyasi konsepsiyasi, umumta`lim maktablarini rivojlantirish davlat dasturi, O`z. PFITIning XT-F2-003 “Umumiy o`rta ta`lim mazmunini modernizatsiyalashning didaktik parametrlari va strategiyasini belgilash” ilmiy laboratoriyasining tadqiqot ishlari va Samarqand Davlat Universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari doirasida bajarildi.

Ishni sinovdan o`tishi. Tadqiqot ishi bo`yicha tajriba-sinov ishlari Samarqand shahridagi 26-sonli, Urgut tumanidagi 33-sonli umumta`lim maktablarida o`tkazildi. Tadqiqot mavzusi yuzasidan 1-ta uslubiy tavsiyanoma, 4-ta maqola va tezislar chop etildi.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi:

Dissertatsiya kirish, uch bob, olti paragraf, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati (_____nomdagi) va ilovalardan tashkil topgan bo`lib, umumiy hajmi _____sahifadan iborat bo`ldi.

I BOB: musiqa darslarini faoliyatlar tizimida tashkil etishning ilmiy-nazariy asoslari.

1.1. Musiqiy faoliyatlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlariga qo'yiladigan talablar mohiyati.

Musiqa san'at sifatida o'zining g'oyaviy-badiiy mazmuni bilan o'tmish va bugungi turmushimizni teran anglashda, insonlarni hayotga ezgu munosabatda bo'lish, go'zallikni idrok etish, badiiy obrazli tasavvur etish, uni qalban his qilish orqali ona vatanga sadoqat, ona xalqimiz tarixi, tili, madaniyati, san'ati, milliy urf-odatlarini, qadriyatlariga hurmat va muhabbat ruhida tarbiyalashda bebaho ahamiyatga molik qudratli ma'naviy boylikdir.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yildan ta'limni milliy lashtirish, unu milliy asoslarda yangitdan qayta qurishga eng muhimi, mustaqil O'zbekiston taraqqiyoti, istiqbolini, kelajagini yaratishda ustivor vazifalardan deb qaraldi. "Ta'lim to'g'risida" gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ushbu vazifalarni amalga oshirishning ilmiy-nazariy asoslarini belgilovchi hujjat sifatida ishlab chiqildi. Ularni mazmuni va mohiyatiga ko'ra belgilangan talab va vazifalar asosida ta'limning barcha bo'g'inlarida o'quv adabiyotlari, darsliklar, o'quv-uslubiy manbalar, ulardagi o'quv materiallari milliy g'oya va milliy negzda qayta ishlab chiqishga kirishildi. Barcha fanlar, xususan, ijtimoiy gumatitar fanlar, mazmuni qonunda ko'zda tutilgan talablar asosida shakllantirildi. Fanlarning Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari yaratilib, hozirgi kunda izchillik bilan amaliyotga joriy etib kelinmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarining o'qtirish xatida musiqiy ta'lim boshqa fanlar o'qitilishidan farqli o'laroq besh faoliyat asosida tashkil etilishi, bunda musiqa tinglash (musiqa idroki), jamoa bo'lib qo'shiq kuylash (xor ijrochiligi) va musiqa

savodi (nazariy ma`lumotlar bilan tanishish) faoliyatlari musiqiy ta`limning asosiy turlari darsning alohida qismlari bo`lib emas, balki, dars mavzusini ochib beruvchi musiqiy faoliyat sifatida tavsiflanadi. Shuningdek, darsning mazmuni, sifati va samaradorligini ta`minlash, mavzularni qiziqarli bo`lishi va bolalarni musiqa mashg`ulotiga faol jalb qilishi, o`quv materiallarini tez va oson o`zlashtirish imkonini oshirish uchun musiqa ritmik jo`r bo`lish (Musiqaga mos raqs, ritmik harakatlar bajarish) va bolalar cholg`u asboblari chalish orqali yoki cholg`uda jo`r bo`lish faoliyatlari qo`llaniladi.

Albatta, o`quvchi-yoshlarni milliy-ma`naviy ruhda tarbiyalash maqsadida ishlab chiqilgan musiqa fani o`quv dasturlari, o`quv rejalari, darsliklar milliy musiqiy ta`lim va tarbiyaning mazmunini va mohiyatini belgilab berishi bilan ahamiyatlidir. Shu o`rinda o`quvchilarga beriladigan bilimlar me`zoni va o`quvchilar tayyorgarligiga qo`yiladigan talablar mazmunida o`quvchilarga musiqiy qo`shiq o`rgatish, musiqa tinglab hordiq chiqarish, musiqa savodi, nota yozuvini o`rgatish eng asosiy maqsad emas, balki ularda badiiy-estetik dunyoqarash, estetik did, musiqa madaniyatini shakllantirishni ko`zda tutadi. Mashg`ulotlarda olib boriladigan barcha musiqiy faoliyatlar va o`zlashtirilgan bilim, malaka, tushunchalar ana shu ezgu niyatni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Darsda belgilangan (rejalashtirilgan) pedagogik vazifalar, musiqani idrok etish musiqiy faoliyatlar uzviy, bir-biri bilan bir maqsadga bog`langan yaxlitlikda olib borilganda o`quvchilarda musiqiy bilim, ko`nikma, malaka va butun bir musiqiy qobiliyatlar (Musiqiy eshitish, ritmni his qilish, musiqiy tasavvur, did, tafakkur, xotira, sezgi, his etish, nota o`qish, kuylash, tinglash va hakazo) majmuini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirib borish jarayoni samarali kechadi.

Musiqiy faoliyatlar o`z mohiyatiga ko`ra darsning bosh mavzusi bilan mantiqan bog`langan bo`lsa-da, ularning har birida o`ziga xos tarzda

pedagogik vazifalarni hal etish imkoniyatlari mavjud. Shunga ko`ra musiqiy faoliyatlarda o`quvchilarda quyidagicha malakalar shakllanishi asosiy maqsad hisoblanadi:

- Musiqiy qobiliyatlarni rivojlanishi;
- Musiqani idrok etish (anglash, his etish) malakalarini rivojlanishi;
- Kuylash (ovoz hosil qilish, eshitib,ergashib kuylash, jo`r bo`lish, ansamblda kuylash, vokal xor malakalari, o`z ijrosini nazorat qilish) malakalari shakllanadi.

- Musiqa savodxonligi, musiqa nazariyasi asoslari o`rganiladi, Musiqaningeng muhim nota savodxonligi bilan bog`liq elementar qoidalari o`zlashtiriladi;

- Musiqaga ritmik jo`r bo`lish, bolalar cholg`u asboblarida chalish, musiqaga mos ritmik va raqs (o`yin) harakatlar bajarish jarayonida ijrochilik va musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish;

- Musiqiy-nazariy bilimlarni o`zlashtirish, ijrochilik ko`nikma va malakalarini hosil qilish jarayonida musiqiy, ijodiy tafakkurni shakllantirish;

- Musiqaning (kuylash, tinglash uchun tanlangan) badiiy-g`oyaviy mazmuni vositasida o`quvchilarda milliy musiqiy dunyoqarashni, ma`naviy-axloqiy hamda estetik fazilatlarni takomillashtirish kabilarga erishiladi. Natijada o`quvchilarda musiqa san`ati, uning turli janr, mavzulari, g`oyaviy-badiiy mazmuni, nazariy qoidalari, uni tahlili haqida mushohada yuritishning dastlabki asoslari vujudga keladi.

Masalan, birgina qo`shiq kuylash faoliyatini olaylik.Rejalashtirilgan qo`shiqni o`rgatishdan avval o`qituvchi ushbu qo`shiqning ijodkorlari (mualliflari, kompozitor, she`r-matn mualliflari) haqida gapirib beradi. Bu yerda musiqa savodxonligi faoliyatning bir bo`limi-musiqa tarixi (adabiyoti) ishtirok etadi, aniqrog`i o`qituvchi musiqa tarixiga oid manbalarga murojaat qiladi. Qo`shiq doskaga yoziladi (boshlang`ich sinflarda) keyin magnet

yozuvi yoki boshqa texnik vositalar (video, audio, kompyuter, televizor) yordamida yoki o`qituvchining o`z (jonli) ijrosida tinglanadi. Bu yerda ko`rinayaptiki, o`z-o`zidan musiqa tinglash faoliyatiga duch kelinadi. Qo`shiq (asar) tinglangach o`quvchilarga u haqda musiqiy-nazariy tushunchalar beriladi. Bunda kuyning xarakteri, janri, mavzusi, o`lchovi, shakli, ifodalovchi vositalari, qanday jamoalar uchun yozilganligihaqidagi tahliliy ma`lumotlarga to`xtalinadi. Ko`rinadiki bu yerda musiqa asari va musiqa asarlari tahliliga murojaat qilinayapti.

Bizga ma`lumki, umumiy o`rta ta`lim maktablarining musiqa madaniyati fani o`quv dasturi va darsliklarida xalq musiqasi namunalariga keng o`rin berilgan. Xalq musiqasiga tegishli qo`shiqlar, yoki xalq kuylari asosida yaratilgan asarlarni o`rganishda albata o`zbek xalq musiqasining o`ziga xos tarixi, janrlari, ijrochilik an`analari, mahalliy musiqa uslublari, mashhur namoyandalari, rivojlanish bosqichlari haqidagi ma`lumot, tushunchalarga o`rin berish maqsadga muvofiqdir.

Shundan so`ng qo`shiqni o`rgatish jarayoni boshlanadi. O`rganilayotgan qo`shiq yaxshiroq idrok qilinishi uchun qo`shiqning ma`no va mazmuniga mos ritmik va raqs harakatlarni bajarish, bolalar cholg`u asboblari chalish (jo`r bo`lish), boshlang`ich sinf o`quvchilarini dars davomida faolligini ta`minlash, darsni qiziqarli o`tishi va oqibatda samarali kechishiga ijobiy ta`sir etadi. Mana shu jarayonda, har bir faoliyat ikkinchisini uzviy davomi, qismi sifatida bir-birini to`ldirishga xizmat qiladi.

Har bir musiqiy faoliyatda bajariladigan vazifalarni aniq belgilash, uni bir soatlik dars ssenariysida joylashtirish va amalga oshirish o`qituvchidan zarur darajada kasbiy mahorat, tayyorgarlikni, ijodiy tashabbuskorlikni talab qiladi.

Musiqa darslari jarayonida o`qituvchining asosiy maqsadi-bolalarga musiqiy-nazariy bilim berish, ularni amaliy ijrochilik ko`nikmalari, malaka

va qobiliyatlarini shakllantirish, ularni musiqa san`atini sevish, qadrlash va ongli munosabatda bo`lishga o`rgatishdir. Bu faoliyatlarda o`qituvchi dasturdagi asosiy talab, me`yorlarni saqlagan holda, o`quvchilar egallashi lozim bo`lgan bilim va malakalar me`zonlariga mos tarzda musiqiy material (erkin repertuar tanlash imkoniyatidan kelib chiqib) tanlashi hamda ishlash uslubini yangilagan holda tarbiya jarayoniga ijodiy yondashishi kerak bo`ladi.

Faoliyatlar davomidagi ta`limiy va tarbiyaviy ishlarni samarali kechishida o`quvchilarning musiqiy tafakkuri, diqqati xotirasi va badiiy emotsional, hissiy qabul qilish qobiliyatlari yordamga keladi.

Pedagogika va psixologiya fanlarida ta`kidlanadiki, badiiy ijodiyotni shakllantirishning barcha turlariga bu narsalar bevosita aloqadordir, qolaversa ta`lim-tarbiya jarayonini bularsiz tasavvur etish va biror natijaga erishish mumkin emas.

Musiqa o`qituvchisi musiqa darslarini o`ziga xos tuzulish xususiyatlaridan kelib chiqib, dars davomida faoliyatlar kesimida bajaradigan ta`limiy-tarbiyaviy hatti-harakatlarini har xil usullarini ishlab chiqishi kerak bo`ladi. Bunda u eng birinchi galda quyidagilarni bilmog`i shart:

- Musiqa darslarining har bir faoliyatini asosiy mavzu va darsning maqsadi, mazmuniga uyg`un tarzda uyushtirish (tashkil etish) shakllarini;
- Musiqa fani bo`yicha dastur mazmuni, talablari, g`oyaviy-nazariy asoslari, didaktik tamoyillarini bilishi va ularga amal qilishi;
- O`quvchilarni yosh va individual xususiyatlarini yaxshi o`rganish orqalipedagogik yondashuvlarni amalga oshirish;
- Musiqa darslarida o`rganiladigan asarlarning badiiy xususiyatlari, tarbiyaviyahamiyatini o`quvchilar tomonidan onglilik, aktivlik tamoyillariga ko`ra o`zlashtirish imkoniyatlarini hisobga olishi;
- Musiqiy ta`lim va tarbiyani dars va darsdan tashqari faoliyatlardagi

uyg`unligini yo`lga qo`yish, olib boriladigan mashg`ulotlarning samarali shakl, usul, vositalaridan o`rinli foydalanishni;

- Darslarni loyihalashtirishni: reja-konspekt tuzish, sinflar kesimida bolalar yoshiga mos asarlarni, repertuarni shakllantirish;
- Pedagogik masalalarni formulalash va yechish yo`llarini;
- O`quvchilarni musiqiy qobiliyatlarini ro`yobga chiqaruvchi musiqiy-ijrochilik faoliyatlarini (sinf konserti, madaniy, ommaviy bayram tadbirlarining konsertlarida chiqish, turli ko`rik-tanlovlarda ishtirok etish) tashkil etishni ;
- Mazkur bilimlar asosida yangi bilimlarni o`zlashtirish (ilgari o`tilganlarga qaytish va o`rganilmagan mavzularga sakrab o`tish tamoyili) yunaltirishni.

Musiqqa darslarini muvaffaqiyati va samaradorligi, o`quvchilarni musiqqa madaniyatini shakllantirishning sifati ta`limning ilk bosqichlaridan uni qay darajada, qanday shaklda uyushtirilishi, tashkil etilishiga ko`p jihatdan bog`liqdir. Bu o`rinda eng muhimi darsda o`quvchilarni yalpi qamrab olish, butun dars davomida ularni faolligini ushlab turish, dars faoliyatlarini qo`llash orqali ulardagi qiziqish va intilishlarni rivojlantirib borishdir. Buning uchun o`qituvchi o`quvchilarni musiqqa savodiga, musiqqa tinglashga, qo`shiq kuylashga barqaror qiziqishni uyg`otishi lozim. O`qituvchi har bir darsning va darsdagi faoliyatlar (jarayonlar) ning o`quvchilar tomonidan ko`tarinki ruhda, qiziqarli va ishtiyoq bilan qabul qilinishiga erishishi zarur. Musiqqa o`qituvchisi musiqiy tarbiya tizimini qanchalik keng tasavvur qilsa, shunchalik uning komponintlarini (musiqiy faoliyatlar nazarda tutilmoqda) puxta o`zlashtiradi va natijada uning mutaxassis- pedagog-tarbiyachi sifatidagi ishi samarali kechadi. Shu o`rinda musiqiy faoliyatlarni eng muhim jihatlariga to`xtalib o`tamiz.

1. **Musiqqa savodi faoliyatida** musiqiy-nazariy bilimlar o`zlashtiriladi,

usizhar qanday bilim poydevorsiz imorat yanglig` to`liq, mukammal va ilmiy asosli bo`lmaydi. Bu faoliyat turida o`quvchilar musiqa “tili”, tarixi, ifoda vositalari (nota savodxonligi), xususan, ritm, metr, registr, o`lchov, lad, temp, nota yo`li, ularning nomlari, yozilishi, sanalishi, tovushlar uzunligi, balandligi, musiqa ijodkorlari, ijrochilari haqidagi muxtasar bilimlarga ega bo`ladilar. Musiqa darslarida har doim ham faoliyatlar ketma-ketligarioya qilish va ularni albatta qo`llash shart degan qoida bilan ish tutmaslik lozim. Shu ma`noda mavjud shart-sharoit, imkoniyat va vaqt o`lchovi, taqsimotiga ko`ra har bir darsda musiqa savodi uchun alohida vaqt ajratilgan holda, uni qo`shiq kuylash, musiqa tinglash va boshqa faoliyatlar jarayonida ham olib borish mumkin. Bu yuqorida aytib o`tilganidek asarni o`rganish (nota bilan kuylash, ifodali vositalarga amal qilish, tinglangan asarni tahlil qilish, asar haqida beriladigan muxtasar musiqiy, nazariy tushunchalar tariqasida berilishi mumkin), kuylash jarayonidagi suhbat, tushuntirish, uqtirish, savol-javob o`tkazish, ko`rsatib berish kabilar doirasida uyushtirilishi mumkin. Chunki, tinglangan, kuylanadigan asarlar haqida zarur bilim, tushunchalarga ega bo`lishda bevosita musiqa savodxonligiga oid bilimlarga tayaniladi.

2. Qo`shiq kuylashfaoliyati o`z navbatida juda ham murakkab va tizimli yo`lga qo`yilgan mashg`ulotlarning cheklanmagan davomiyligida shakllanadigan vokal-xor malakalariga tayangan holda o`zining haqiqiy in`ikosini topadi. Maktabda qo`shiq kuylash jamoaviy shaklda tashkil etiladi va u asosan, vokal kuylashga asoslanadi. Bu jarayonda nafas hosil qilish, tovushni yo`llash, yurgizish, nafasni tejamli sarflash, ansambllikka rioya etish, jo`r bo`lish, nutq talaffuzi, sof intonatsiyaga erishish, dinamik belgilarni tushunib, ularga rioya etib kuylashga erishilgandagina ijro sifatli bo`ladi, jamoa bo`lib kuylash talablariga mos keladi. Bu jarayonda musiqiy-nazariy qoidalarni o`zlashtirish darajasi, ularga ongli, tushungan holda yondashish, shu bilan birga ijroni musiqiy yozuvlarini, o`quvchilarning o`z

ijrolarini, o`qituvchining ijrosini tinglab, o`z ijrolarini ularga ting tenglashtirishga intilib, taqqoslab, xatolarini anglagan holda mashg`ulot (repetetsiya) davomida ularni bartaraf etishlari ham faoliyatlar bir birini taqazo etishini va ular doimo birgalikda ajralmas holda namayon bo`lishini tasdiqlaydi.

Qo`shiq kuylash (jamoaviy ijro) faoliyatida da musiqiy asarlarga taalluqli barcha ma`lumotlarni o`zlashtirish kerak bo`ladi va bu narsa o`quvchilarda musiqiy dunyoqarashni shakllanishida muhim o`rin tutadi.

3. Musiqa tinglash faoliyati barcha faoliyatlarda bevosita ishtirok etadi. Bu faoliyatda musiqiy idrok, tafakkur shakllanadi. Musiqa tinglangach u haqdagi hikoya, suhbat, savol-javob, munozaralar mazmunida umummusiqiy nazariy ma`lumotlar bilan tushunchalar berib boriladi.

4. Musiqali ritmik harakatlar bajarish, bolalar cholg`u asboblarida jo`r bo`lish (chalish) faoliyatida o`quvchilarda deyarli musiqiy psixologik xususiyatlarning barchasi rivojlanadi. Chunki, bu faoliyatda ular musiqa bilan be`vosita shug`ullanadilar, darsda oddiy tinglovchi emas, faol ijrochilar sifatida qatnashadilar. Har qanday jo`rlik va muayyan harakatlarni bajarishdan oldin musiqa tinglanadi (idrok etiladi). Bu esa musiqaning xarakteri, janri, ritmik ko`rinishini eslab qolinishini ta`minlaydi va shunga mos harakatlarni belgilash, qaysi cholg`uda jo`r bo`lish maqsadga muvofiq kelishini aniqlash imkonini beradi.

Ushbu aytilganlardan ko`rinadiki, musiqiy ta`limning darsda qo`llaniladigan qanday faoliyat turi bo`lmasin, u shaxsning musiqiy qobiliyatlari, psixologik xususiyatlarini shakllanishi, rivojlanishiga xizmat qiladi. Hozirgi kunda respublikamizdagi musiqa ta`limi va tarbiyasining asosiy shakli Oliy va o`rta maxsus hamda O`zbekiston Respublikasi Xalq Ta`limi Vazirligi tomonidan tavsiya etilgan dasturlar asosida olib boriladigan musiqa darslaridir. Ta`lim tizimining eng muhim shakllantiruvchi bo`g`ini

bo`lgan umumta`lim maktablarida musiqa darslari o`ziga xos faoliyatlar negizida tashkil etiladi, ular bir- birlaridan ajratilishi mumkin emas, chunki, ular musiqiy ta`limiy va tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishda bir biri bilan o`zaro bog`langan va ba`zan bir biriga singib ketgan bo`ladi. Musiqani tinglash jarayonida o`quvchilar muayyan darajada musiqiy-nazariy bilimlarni o`zlashtiradilar, musiqani tinglash ko`nikmasi va tajribasini to`playdilar. Jamoa bo`lib qo`shiq kuylash jarayonida qo`shiqchilik ovozi, vokal-xor malakalari rivojlanadi. Qo`shiq kuylash, musiqali ritmik-raqs harakatlarini bajarish, improvizatsiya qilish, bolalar cholg`ularida jo`r bo`lish (chalish) da ijrochilik malakalarining rivojlanishi o`quvchilarni o`quv mashg`ulotlarining faol, manfaatdor, emotsional qatnashchilariga aylantirib qo`yadi.

Darsning mavzusi, mazmuni va mohiyatidan kelib chiqqan holda darsdagi biror bir faoliyat birinchi o`ringa chiqib qolishi ham mumkin. Lekin, ularning qay biri oldin, qay biri keyin, yoki vaqt taqsimoti bo`yicha turlicha tashkil etilgan bo`lsada, unda qo`shiq kuylash (vokal-xor, solfedjio), musiqaning elementar nazariyasi, musiqa tinglash(musiqqa tahlili), musiqali ritmik harakatlar bajarish, cholg`u asboblarida ijro etish kabilar u yoki bu tarzda mujassamlashadi.

Buni biz quyidagi bitta darsning tuzilishi misolida keltirib o`tamiz:

Darsning mavzusi: Musiqaning ifoda vositalari.

Darsning turi- fanlararo uzviylik.

Darsning maqsadi:

1.ta`limiy maqsad: musiqaning ifodalovchi vositalari haqida tushuncha berish, ovoz sozlash mashqlari o`tkazish, yangi qo`shiq o`rganish, musiqiy asar tinglash, oldingi o`tilgan mavzuni takrorlash va mustahkamlash.

2.tarbiyaviy maqsad: o`quvchilarning musiqiy idroki, didi, dunyoqarash va tafakkurini shakllantirish, musiqaga qiziqish va badiiy emotsional

ta'sirchanligini uyg'otish, qo'shiq g'oyaviy- badiiy mazmuni orqali ma'naviy, axloqiy fazilatlarini shakllantirish.

Qo'llaniladigan adabiyotlar- darslik, solfedjio darsligi, qo'shiqlar to'plami.

Darsning jihozi:- musiqani ifodali vositalari aks etgan plakat, qo'shiqning nota matni, cholg'u asbobi.

Darsning borishi:

1. Sinfni uyushtirish:

- a) Musiqiy kirish;
- b) Davomatni aniqlash;
- c) Mavzuni e'lon qilish;

Amaliy vazifalar:

- a) Ovoz sozlash mashqlari;
- b) Nafas olish, sarflash, solfedjio usulida kuylash;

2. Yangi mavzuni o'tish:

- a) Qo'shiqni o'rganish: jummalarga bo'lib, o'qituvchi ijrosiga ergashib, 1-2 ovoz partiyalari ustida ishlash;
- b) Intervallar haqida tushuncha berish, misollar kuylash;
- c) Musiqa tinglash: asar haqida qisqacha suhbat o'tkazish;
- d) Bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish va musiqaga mos raqs varitmik harakatlar bajarish. O'rganilayotgan va tinglangan asarga chapakda jo'r bo'lish;

e) Ijodiy vazifalar: musiqaga jo'r bo'lish uchun qulay cholg'uni aniqlash, tinglangan asar xarakteri, janri, lad-tonalligini aniqlash;

3. O'tilgan mavzu materialini mustahkamlash;

4. Uy vazifasi. Qo'shiq matnini yod olish, musiqani ifoda vositalarini yozib kelish.

Respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy, ma'naviy hayotining

barchajabhalarida bo`layotgan o`zgarishlar, yangilanishlar, fan va texnikaning jadal rivojlanishi, ta`lim-tarbiya tizimi jahon amaliyotiga tadbiiq etilgan yangi, ilg`or pedagogik va axborot texnologiyalarini keng ko`lamda kirib kelayotganligi, fan sohalarida ta`limning integratsiyalashuvining tobora o`sib borayotganligi musiqa ta`limi-tarbiyasiga ham o`zining sezilarli ta`sirini o`tkazishi tabiiydir. Shunga qaramasdan respublikamizdagi amaldagi musiqiy ta`limning umumiy o`rta ta`limdagi strukturasi (shakli) o`z qiyofasini saqlab qolmoqda. Respublikamizda musiqiy-estetik tarbiya sohasidagi ilmiy tadqiqotlar, o`quv, me`yoriy hujjatlar, keyingi yillarda chop etilgan ilmiy manbaalarda ham umumta`lim maktablarida musiqa darslarini ko`rib o`tilgan va amalda qo`llanilib kelinayotgan tartibi eng qulay va samarali ta`lim shakli sifatida e`tirof etilib kelinayotganligi ham be`jiz emasligini anglatadi.

Faoliyatlar tartibida tashkil etilgan har bir dars o`z xususiyatiga ko`ra takrorlanmas va aynan bir birini takrorlamaydigan bo`ladi. Darsning har bir faoliyati, qo`llanilgan uslublar, foydalanilgan vositalar, dars maqsadi, vazifalari, kutilayotgan natijalar har bir mavzu mohiyatini ochishga yo`naldiririshgan va oldindan belgilangan bo`ladi.

Shu o`rinda faoliyatlar asosida tashkil etiladigan bir aralash dars turining taxminiy rejasini keltirib o`tishni lozim topamiz: (misol 3-sinf dars mavzusiga oid tanlandi).

Dastlab darsning maqsadi belgilanadi.

- **Darsning maqsadi:**

1) Ta`limiy maqsad-intonatsiya ustida ishlash, yangi mavzuni tushuntirish, oldingi darsda o`tilgan qo`shiq badiiy ijrosi ustida ishash.

2) Tarbiyaviy maqsad- o`rganilayotgan qo`shiqning g`oyaviy-badiiy mazmuni orqali vatanga, xalqqa nisbatan mehr-muhabbat, milliy musiqamizga, milliy qadriyatlarga hurmat va faxrlanish hissini uyg`otish.

3) Rivojlantiruvchi maqsad- o`rganilayotgan asar haqida mustaqil fikr yuritaolish, sharhlash, o`zi va sinfdoshlari ijrosini nazorat qila olish.

4) Shakllantiruvchi maqsad- musiqiy qobiliyatni, eshitib tasavvur etish, aniqlash malakalarini, qo`shiq kuylash holati, to`g`ri nafas olish ko`nikmalarini shakllantirish.

I- **Darsning turi:** Bahs-munozaraga asoslangan intellektual o`yin.

II- **Darsning ko`rgazmaliligi:** Darslik va qo`shimcha adabiyotlar, cholg`u asbobi, ovoz yozish, eshitish apparatlari, kartochka, plakatlar.

III- **Darsning rejasi:**

1) O`quvchilar musiqa sadolari ostida sinfga kiradilar.

2) Musiqa tinglashadi, taassurotlar yuzasidan fikr-mulohazalar almashiladi (asar muallifi, janri, tempi, ritmi, usuli, tonalligi va hokazo).

3) Yangi mavzu tonika haqida tushuncha. Kuyning tayanch nuqtasi tonikadir. Har bir tonallikda tonika tovushi mavjud. Musiqiy asarlar aksari o`z yozilgan tonalligining tonikasidan boshlanadi va tugaydi.

4) O`rganiladigan qo`shiq “ Salom maktab” tinglanadi. Yangi mavzugabog`lagan holda o`qituvchi o`quvchilarga asarning tonikasini topishni so`raydi.

5) Qo`shiq o`rganishga kirishiladi. Ovoz sozlash mashqlaridan so`ngqo`shiq jumalarga bo`lib o`rganiladi.

6) O`qituvchi o`quvchilar bilan birgalikda qo`shiqni musiqiy-nazariy vabadiiy (mazmuni yuzasidan) tahlil qiladi. Asosiy etibor asarning tarbiyaviy qirralariga qaratiladi.

IV- **Darsning borishi:**Dars an`anaviy tarzda (o`quvchilar davomatini tekshirish, uy vazifalarini so`rash, baholash, musiqa tinglash, qo`shiq o`rganish, kuylash, musiqa savodiga oid bilimlar haqida tushuncha berish) olib boriladi. So`ng dars yuqorida belgilangan reja asosida olib boriladi.Dars so`ngida uy vazifasi yozdiriladi va faol o`quvchilar baholanadi.

Darslarga qo'yiladigan didaktik talablar tizimida qo'llaniladigan metodikaning aniq va tushunarli bo'lishi, avvalgi o'tilgan darslar bilan o'tilayotgan mavzularning uzviyligi, mavzuga mos materiallar tanlanishi, usul va uslublar, ko'rgazmali va texnik vositalardan o'rinli va unimli foydalanish va ulardan foydalanishda darsning har bir faoliyatini o'ziga xos xususiyatlarini, vazifalarini e'tiborda tutish, jamoaviy ijrochilik, musiqa tinglash, musiqa savodxonligi, musiqaga ritmik va raqs harakatlari bajarish, cholg'u asboblariida jo'r bo'lish faoliyatlarini mavzu doirasida umumlashtirish, darsni yagona tizimda boshqarish ta'lim mazmuni va sifatini ta'minlashning hal qiluvchi omillari bo'lib xizmat qiladi. Zotan, musiqa madaniyati fanining o'quv dasturida shu narsa alohida ta'kidlanadiki, faoliyatlar doirasida berilgan, tavsiya etilgan asarlar (kuylash, tinglash) shartli ravishda berilgan bo'lib, dars jarayonida ularni almashtirish mumkin. Bu o'z navbatida darslarni rejalashtirish va unga tayyorgarlik ko'rishda ijodiy yondashishni taqazo etadi. Bunda shu narsaga etiborni kuchaytirish lozimki, garchi dasturda asarlar va mashg'ulotlar mazmuni har bir faoliyat turiga doir alohida-alohida ko'rsatilgan bo'lsa-da, darslarni rejalashtirishda va o'tishda musiqiy faoliyatlar dars mazmunidan kelib chiqishi va uning mohiyatini ochib berishi lozim bo'ladi. Shunday qilib musiqa faoliyatlari mantiqan birlashib, mazmunan bir butunlikni tarkib toptiradi.

1.2. Musiqa tinglash- musiqa darslarida yetakchi faoliyat sifatida.

Umumta'lim maktablarining musiqa madaniyati darslarida musiqiy faoliyatlarni u yoki bu turini birinchi yoki ikkinchi, birinchi darajali yoki ikkinchi darajali, oldingi o'ringa yoki keyingi o'ringa qo'yishni mantiqan to'g'ri deb hisoblash va ularga to'g'ri ta'rif berish juda murakkab ish. Bu yerda eng asosiysi ularning pedagogik maqsad va vazifalarni yechimida qanchalik ko'proq, kengroq ishtirok etishida deb baholansa bizningcha to'g'ri

bo`ladi. Vaholangki, har qanday badiiy asarni yuksak ijod mahsuli sifatida namoyon bo`lishi va e`tirof etilishida asosiy va qo`shimcha obrazlar ko`rinishi va boshqa detallarning o`z o`rni bo`ladi. Ularsiz voqelik, tasvir, ko`rinish to`la ravishda o`z badiiyligini in`ikos eta olmaydi. Shu ma`noda musiqani tinglamay uni idrok etish, musiqiy obraz, voqelik dunyosiga kirish, his etish, tasavvur qilish, shu bilan birgalikda musiqaga qiziqish uyg`otish, musiqiy-nazariy bilimlarni o`rganish, musiqa madaniyatini shakllantirish mumkin emas. Buyuk kompozitor D. D. Shostakovich ta`biri bilan aytganda, “ Musiqani sevish uchun, avvalambor uni tinglash kerak”. Musiqiy mashg`ulotlarning qay bir turida bo`lmasin, bolalar turli mavzu, janr, uslub, shakldagi, turli bastakorlar, xalqlarning asarlaridan namunalar tinglaydilar, bu jarayonda ularning aqliy kamoloti, musiqiy idroki, mantiqiy, badiiy fikrlashi, dunyoqarashi, tafakkuri rivojlanadi. Bu faoliyatda musiqaga nisbatan tinglovchida biror bir hissiyot, munosabat, emotsional ta`sirchanlik yuzaga kelmasa, o`quvchida asarga nisbatan biror bir savol vujudga kelmasa, bunday faoliyat samarasiz faoliyat bo`lib hisoblanadi.

Asar tinglovchida biror bir fikr aytishga, g`oyaviy-badiiy mazmuniga, ijrosining saviyasiga baho berishiga, asarning xarakterli xususiyatlarini tahlil qilishga rag`bat uyg`otsagina maqsadga erishilgan hisoblanadi. Musiqiy ta`limda asosiy maqsad, vazifa mana shunga erishishdan iborat bo`lmog`i lozim.

Musiqa darslarida o`quvchilarning musiqaga qiziqishlari, uni sevib tinglash, o`rganish, kuylash, qalbdan his etish, qabul qilishi musiqa tilini tushinish malakalarini shakllantirish, hab bir o`quvchining o`z sevimli musiqiy asarlar zahirasini tarkib toptirish, milliy va mumtoz musiqaga nisbatan ongli qiziqish va muhabbatni paydo qilish muhim o`rin tutadi.

Umumta`lim maktablari musiqa madaniyati darslarida musiqa tinglash faoliyati vazifalari ikkita asosiy yo`nalishni o`z ichiga oladi.

1. Har xil janr, mazmundagi va har xil mualliflar (bastakor, kompozitor, qardosh va chet el kompozitorlari) asarlari bilan tanishish, musiqiy zahirani keng ko`lamli doirasini shakllantirish.

2. Musiqiy termin, tushuncha, qoidalarni (musiqaning elementar nazariyasi) o`zlashtirish, musiqaning asosiy ifodalovchi vositalari haqida boshlabg`ich bilimlarni egallash.

Ma`lumki, har bir shaxs, o`z hayotining barcha bosqichlari davomida har kuni musiqaga ko`p bor to`qnash keladilar, ya`ni, o`quvchilarning hafta davomidagi tinglaydigan musiqa ko`lami haftada bo`ladigan bir soatlik darsdan bir necha barobar ko`p bo`lishi tabiiy. Ammo, musiqani shunchaki tinglash bilan ma`lum maqsad va vazifalarga yo`naltirilgan mashg`ulotlarda tinglash o`rtasida katta farq bor. Musiqa shunchaki tinglanganida uni badiiy – g`oyaviy jihatdan hamma vaqt ham maqsadga muvofiq idrok eta olmaslikni hisobga olgan holda musiqa darslarida musiqa tinglash faoliyati o`quvchilarning musiqiy hayotlarida boshqaruvchi va pedagogik maqsadga yo`naltiruvchi, badiiy, axloqiy, ma`naviy va estetik tarbiyalovchi vosita sifatida xizmat qilishi lozim.

Musiqa ta`limi va tarbiyasining eng muhim tomonlaridan biri pedagogik va metodik jihatdan to`g`ri yo`lga qo`yilgan mashg`ulotlarda o`quvchilarni musiqiy idroki, didi va musiqiy qobiliyatlari shakllanadi. Bo`jarayonni muvaffaqiyatli kechishida ovoz sozlash, musiqa savodi, musiqaga mos harakatlar bajarish, bolalar cholg`u asboblarida jo`r bo`lish muhim ahamiyat kasb etadi.

Inson yaxshi musiqiy asarni (qo`shiq, kuy) mahoratli ijrochi ijrosida tinglaganda unda musiqiy asarga nisbatan muayyan taassurot, fikr-

mulohazalar uygʻonadi. Tinglovchilarning musiqa asarini qanday va qay darajada idrok etishlari badiiy -emotsional taʼsirlanishlari, estetik zavq olishi, asarning tinglovchilar ruhiyatiga, ongiga taʼsiri musiqaning qay darajadagi yuksak ijod namunasi ekanligiga, ijro etuvchining mahoratiga bogʻliqdir.

Tinglangan musiqa haqidagi tahliliy suhbat, uning yaratuvchilari, yaratilish davri, musiqiy asar sifatidagi xususiyatlari, nazariy ifoda vositalari haqidagi tushunchalar asarning mazmun va mohiyatini mukammal idrok etishga olib keladi.

Maktab musiqa madaniyati darslarida aytib oʻtilgan shartlarga amal qilgan holda musiqa tinglash faoliyatini tashkil qilish musiqa oʻqituvchisi oldiga oʻta muhim vazifalarni qoʻyadi. Xususan, musiqa oʻqituvchisi darsda musiqani eshittirishdan oldin u haqda qisqacha suhbat oʻtkazadi va suhbat mazmunida asar mazmuni, xarakteri, janri, mualliflari haqida soʻzlab beradi. Tinglanadigan asar agar qoʻshiq boʻlsa, avvalo u oʻqituvchi ijrosida yoki “musiqiy yozuv” da eshittiriladi. Oʻqituvchining jonli, ifodali ijrosida asrni taʼsirchanligi yanada yuqori boʻladi. Taassufki, hozirgi kunda barcha oʻqituvchilarni mahoratli ijrochi (qoʻshiq kuylash, cholgʻuda chalish) deb boʻlmayd. Lekin, metodik jihatdan yaxshi tayyorgarlikkga ega boʻlgan oʻqituvchi barcha imkoniyatlardan (koʻrgazmali, texnik vositalardan) foydalangan holda dars samaradorligiga erishishi mumkin.

Musiqa taʼlimi tizimida darslarni metodik jihatdan toʻgʻri tashkil etishda darsda tinglanadigan asarning musiqiy tuzulishi, badiiy-gʻoyaviy mazmuniga koʻra yil va chorak mavzusiga mos boʻlishi lozim.

Musiqa tinglash faoliyatini quyidagicha bosqichlarda tashkil etish metodik jihatdan bir qadar oʻrinli boʻlad:

1. Tinglanadigan asar haqida oʻqituvchining kirish soʻzi (bunda asar mavzusi, mazmuni, eng muhim xususiyatlari, mualliflari hayoti va ijodiga toʻxtalib oʻtadi).

2. O`qituvchining jonli ijrosi yoki texnik vosita yordamida asar tinglanadi.

3. Tinglangan asar yuzasidan qisqacha tahlil o`tkaziladi.

4. Musiqiy asarni to`lalgicha qayta tinglash hamda o`quvchilarning taassurotlarini umumlashtirib xulosa chiqarish.

Mazkur jarayonda o`quvchilarda quyidagicha ko`nikma va malakalar shakllanishiga imkoniyat yaratiladi.

- Musiqani diqqat bilan tinglash;
- Musiqiy asarni tinglash orqali asar mazmuni va xarakterini anglash (idrok etish);
- Musiqaning ifodali vositalari, janri (qo`shiq, raqs, marsh) tembri, o`lchovi, lad-tonalligi va hakazolar haqida tushunchaga ega bo`lish;
- Asar qo`shiq bo`lsa, undagi ovozlarni (erkaklar, ayollar, bolalar, bir ovozli, ikki ovozli, yakkanavoz) eshita olish va bir-biridan farqlay olish;
- Cholg`ularni ovoz temblaridan ajrata olish;

Musiqaning tinglash jarayonini to`g`ri tashkil etishning muhim pedagogik jihatlaridan yana biri sinfda tinchlik holatini saqlash va bunga bolalarni o`rgatish kerak.

Har qanday bilim, ko`nikma va malakalarni orttirishda takrorlash o`ta muhim shart hisoblanadi. Musiqaning tinglashda ham asarni qayta-qayta eshitib turish, uni yaxshi tushunish, xotirada saqlab qolish u haqdagi bilimlarni yaxshi o`zlashtirishga imkon yaratadi. O`quvchilarni asta-sekinlik bilan bo`lsa-da, tinglangan musiqaning asari haqida taassurotlarini aytib berishga o`rgatib borish kerak.

Yuqorida ta`kidlab o`tganimizdek, musiqaning tinglash darsining barcha faoliyat turlarini bajarish jarayonida amalga oshadi va u boshqa faoliyatlardan shu xususiyati bilan alohida ajralib turadi. Demak, musiqaning tinglash ta`lim mazmunining asosini tashkil etadi. Bu jarayonda

o`quvchilarda musiqani, uning obrazlari vositasida hayotni, borliqni badiiy-estetik idrok etish, anglash va bilimmalakalari-musiqiy dunyoqarash, tasavvur etish kabi qobiliyatlari rivojlanib boradi.

Musiqaning tinglash jarayonida musiqani idrok etish bilan bog`liq qobiliyatlarning majmui rivojlanadi. Shu sabab ham musiqaning tinglash ilmiy manbalarda musiqaning idroki sifatida ham talqin etiladi.

Musiqaning tinglash (idroki) barcha musiqiy faoliyatlar amaliyotida yetakchi xususiyatga ega ekanligi Davlat Ta`lim Standartida ham alohida ta`kidlanadi. Shu nuqtai-nazardan musiqaning tinglash faoliyatini musiqiy idrok shakllanishiga ta`sir etuvchi quyidagi ijtimoiy-psixologik omillardan kelib chiqqan holda tashkil etishni maqsadga muvofiqligi ko`plab tajribali pedagoglar, metodist-o`qituvchilar tomonidan e`tirof etilgan. Bunga biz ham o`z tadqiqiy kuzatuvlarimizda yetarli darajada ishonch hosil qildik.

Birinchidan, musiqiy tarbiyani amalga oshirishda avvalo, o`quvchilarning qiziqishi, qobiliyati, iqtidori, estetik dunyoqarashi, musiqiy o`quv darajasining rivojlanganligi, xarakteri va irodaviy xususiyatlarning uyg`unligidan kelib chiqish lozim bo`ladi.

Bolalik davrida musiqiy idrok musiqaning ijrosini kuzatish shaklida namoyon bo`lsa, o`smirlik davrida-musiqiy tafakkur shaklida rivojlanadi. Bundan tashqari musiqiy asarlarni tinglash (idrok etish)da emotsiyalar ham ma`lum ahamiyat kasb etib, ularda insonning borliqqa, insonlarga, o`z-o`ziga munosabati ifodalanadi. O`quvchi tomonidan qaysi musiqaning asarining qanday mazmunda qabul qilinishi-uning shaxsini, individualligini belgilaydi.

Musiqiy qiziqish va ehtiyoj o`quvchining har doim tinglaydigan musiqaning asarlari asosida shakllanadi. Musiqiy qiziqishlarning bevosita hamda bilvosita namoyon bo`ladigan xillari mavjud. Bevosita qiziqishlar musiqaning materialining hissiy jihatdan jozibaliligi natijasida paydo bo`ladi. Masalan, G`afur Qodirov musiqasi, O`tkir Rashid she`ri bilan “ Bahor qo`shig`i”, Avaz

Mansurov musiqasi, K. Botirov she`ri bilan “ Qo`g`irchig`im-o`yinchoq” qo`shiqlari bu jihatdan e`tiborli.

Bilvosita qiziqishlar esa ma`lum bir musiqa asarining real ijtimoiy ahamiyati bilan uning o`quvchi uchun subyektiv ahamiyati bir-biriga mos kelgan taqdirda paydo bo`ladi. Masalan, A. Oripov she`ri, Anor Nazarov musiqasi “ Men nechun sevaman O`zbekistonni”, Qahramon Komilov musiqasi, N. Rashidov so`ziga yozilgan “Vatan degan nimadir o`zi” qo`shiqlari shu jihatdan ahamiyatlidir.

Ko`rinib turibdiki, o`quvchi-yoshlar qo`shiq va kuylarni asosan, bevosita qiziqishlar orqali tinglab, idrok etishga harakat qiladilar. Bunday shakldagi jarayonda musiqaning asosan, tashqi jihati o`ziga jalb qiladi. Bu emotsionallik mohiyatining ustunligi bilan bog`liq masala sifatida e`tiborga moildir.

Ikkinchidan, milliy va ma`naviy xususiyatlar sifatidagi mehnatsevarlik, irodalilik, mardlik, oriyat, kamtarlik, urf-odat va an`analarga sadoqat kabi fazilatlar ham o`quvchilarni musiqiy rivojlanishida muhim o`rin tutadi.

Musiqa tinglash va kuylash jarayonida har bir o`quvchida namoyon bo`ladigan xarakter xususiyatlardan foydalanib musiqiy qobiliyatlarni yaxlit rivojlanishiga erishish mumkin.

Uchinchidan, o`qituvchi shaxsi va uning musiqa darslarini, shu o`rinda musiqa tinglash faoliyatini qay darajada tashkil qilishi hamda o`quvchining sinfdagi do`stlari, oila a`zolarining musiqaga munosabati ham juda muhim o`rin tutadi.

To`rtinchidan, musiqa san`atning abstrakt turlaridan bo`lganligi uchun uni o`quvchilar tomonidan to`la idrok qilinishi ham o`ziga xos xususiyatlar bog`lanishlarini-tafakkur, tasavvur, badiiy-estetik tajriba-ni talab qiladi.

Musiqa tinglashning musiqa darslaridagi yana bir ahamiyatli tomoni shundan iboratki, fan dasturiga kiritilgan barcha musiqa asarlarini, ya`ni, turli

janr, uslubdagi va turli darajadagi ijrochilar, jamoalar uchun yozilgan (Kompozitorlar asarlari) asarlarni yoki xalq musiqasining mumtoz va maqom janrlariga mansub asarlarni kerakli darajada chalib ko`rsatish yoki kuylab berishda o`qituvchining imkoniyati har doim ham talabga javob bermasligi sabab, bunday asarlar ustida ish olib borganda darsda bolalarni kuylashiga nisbatan musiqa asarlarini tinglashga yetakchi o`rin ajratiladi. Xususan, yuqori sinflarda (5-7-sinflar dasturi bo`yicha “musiqa tinglash” va “jamoabo`lib ijro etish uchun tavsiya etilgan asarlar asosan xor, orkestr ijrochiligi bilan bog`liq murakkab janrlarga xos (romans, ko`p ovozli xor qo`shiqlari, syueta, kantata, oratoriya, musiqali dramalardan namunalar, shuningdek, mumtoz va maqom tarkibiga kirgan) asarlardan tashkil topgan. Ular haqida o`quvchilarga zarur bilim, tushunchalarni berishda o`qituvchi tomonidan qilinadigan suhbat, tushuntirish, ma`lumotlar berish bilan o`quvchilarda kerakli tasavvur va tushunchalarni hosil qilish qiyin. Masalan, o`quvchi simfonik musiqani, yoki vokal-simfonik musiqani, albatta tinglagandagina uni boshqa asarlar bilan taqqoslab tahlil qilish orqali idrok eta oladi. Bu o`rinda o`qituvchi texnik vositalar yordamida namunalarni eshittirishi va uning janriy xususiyatlari haqidagi nazariy ma`lumotlarni berishi o`quvchilarda vokal, maqom yoki opera, balet, simfonik asar haqida, xalq cholg`u asboblari orkestri, simfonik orkestr, duxovoy orkestr, kamer orkestr, estrada orkestri, maqomning turli turkumlarini o`ziga xos xususiyatlari haqida ongli tasavvur hosil qilishlariga erishiladi.

Yuqori sinflarda o`quvchilarni ovozida rasta bo`lish jarayonini kechuv davri kechayotganligi ham musiqa asarlarini (qo`shiq kuylash) kuylashga nisbatan musiqa tinglash faoliyatiga ko`proq e`tibor qaratish zaruriyatini paydo qiladi. Bu yoshdagi (5-7-sinflar) o`quvchilar ancha murakkab ichki dunyo, his-tuyg`ular, kechinmalarga boy, muhabbat mavzularidagi, qahramonlik ruhidagi musiqiy asarlarga ko`proq qiziqadilar, o`rganish,

kuylash, tinglashga intiladilar. O`smir yoshidagi bolalar hissiyotlarga beriluvchan, romantik tuyg`ularga ta`sirchan bo`lganliklari sababli chuqur falsafiy g`oyalar bilan sug`orilgan, orzu, baxt-saodat uchun kurash, ilk muhabbat ehtirolari ifodalangan musiqa ularga kuchli ta`sir etadi. Shuning uchun ham, 5-7-sinf dasturlariga o`quvchilarni musiqaning murakkab ko`p ovozi, xor, orkestr, simfonik orkestr, vokal-simfonik asarlar, yevropa mumtoz musiqasi namunalari, o`zbek xalqining, Sharq mamlakatlarining mumtoz va maqom musiqasi durdonalari bilan tanishtirish ko`zda tutilgan. Musiqa madaniyati dasturiga kirgan, buyuk g`oyalarni aks ettiruvchi o`zbek mumtoz va maqom kuy-qo`shiqlari, musiqali drama va komediya, opera, balet, vokal-simfonik asarlar, zamonaviy musiqaning estrada yo`nalishiga oid, shuningdek, o`zbek xalq musiqasining mahalliy uslublariga xos aytimlar, dostonchilik qo`shiqlari namunalari bilan tanishadilar. Bu asarlarni tinglash, ular haqidagi adabiy, badiiy, tarixiy, musiqiy-nazariy ma`lumotlarni egallash o`quvchilarni umummusiqiy savodxonligini, musiqiy dunyoqarashi, tafakkurini boyishiga, to`laqonli musiqa madaniyatini shakllantirish imkonini paydo qiladi.

Birinchi bob bo`yicha xulosalar.

Umumiy o`rta ta`lim tizimidagi musiqa ta`limining amaldagi holati, mazmuni va metodikasini o`rganish, bu borada qator mamlakatlarning tajribalarini tahlili shuni ko`rsatadiki, umumta`lim maktablarida o`tiladigan barcha fanlar qatori musiqa predmeti ham eng avvalo, har tomonlama barkamol avlod shaxsini, uning ma`naviy va ma`rifiy, aqliy-axloqiy, badiiy-estetik, jismoniy kamolotini shakllantirish maqsadini ko`zda tutadi. Har bir fanni o`qitilishini o`ziga xos predmeti bo`lgani singari musiqiy ta`limning ham o`ziga xos maqsadi, vazifalari, didaktik prinsiplari va o`qitish metodlari mavjud. To`g`ri yo`lga qo`yilgan musiqa ta`limi va tarbiyasi ham umumiy pedagogika fanining bir tarkibiy qismi sifatida uning umumdidaktik

prensiplariga amal qiladi. Shu bilan birga musiqaning tarbiyaviy ta`siriga erishish, o`quvchilarda musiqa san`atiga qiziqish uyg`otish, turli janr, uslub, shakl va mazmun, murakkablikdagi asarlarni idrok etish jarayonida musiqiy-badiiy obrazlarni yoritib beruvchi musiqiy asarlar mazmunini anglash, his etish, tasavvur qilish, unga ongli munosabat hosil qilish, musiqiy-nazariy bilimlarni o`zlashtirish bilan amaliy ijrochilik malakalarini egallash, musiqa asariga baho bera olish, ularni saviyasini farqlay olishiga o`rgatish musiqa fani predmetini belgilovchi asosiy mezon hisoblanadi.

Albatta, har qanday fan sohasida bo`lgani kabi musiqa ta`limining ham asosiy shakli bu maktab dars jarayonidir. Musiqa dars shaklining boshqa fanlardan ajralib turuvchi eng muhim xususiyati uni bir qator faoliyatlar negizida tashkil etilishida ko`rinadi. Bu faoliyatlar beshta bo`lib ular dars jarayonida uning alohida qismlari bo`lib emas, dars maqsadi, mazmuni va vazifalarini yaxlit holda samarali kechishiga xizmat qiluvchi, bir-birini to`ldiruvchi va uzviy bog`langan komponentlari sifatida ishtirok etadi. Darsda belgilangan pedagogik maqsadlar manashu faoliyatlar uyg`unligida olib borilgandagina o`quvchilarda musiqiy-nazariy bilimlarni o`zlashtirish, amaliy ijrochilik ko`nikma va malakalarini hosil qilish, musiqani idrok etish qobiliyatlari va natijada to`la ma`nodagi musiqa madaniyatini shakllantirishga erishiladi. Musiqiy faoliyatlar ta`lim jarayonida ta`lim oluvchi shaxsning barcha musiqiy-psixologik xususiyatlari (qobiliyatlari) ni shakllanishi, rivojlanishi va takomillashib borishiga o`z ta`sirini o`tkazadi. Biroq darsda o`quvchi faoliyatining barcha turlariga musiqani idrok qilish asos bo`ladi. Musiqiy idrok esa avvalo musiqani tinglash natijasida yuzaga keladi. Musiqani tinglamasdan yuqorida ta`kidlab o`tilgan sifatlarni shakllantirish mumkin emasligi faoliyatlar tizimida musiqa tinglash faoliyati yetakchi o`rin tutishini bildiradi.

Demak, har bir musiqa o`qituvchisi o`zining musiqa o`qituvchilik kasbida buni yodda tutishi, darslarni reja-loyihasini tuzish, tashkil etish, uyushtirishda har bir faoliyatga qo`yiladigan talablar mohiyatidan kelib chiqqan holda ularga ajratiladigan vaqt meyorlarini aniq hisobga olgan, pedagogik maqsad va vazifani muvaffaqiyatini ta`minlashiga xizmat qiluvchi yangicha yondoshuvlar bilan ish uslubini qo`llagan holda ish tutishi lozim bo`ladi.

II BOB: Musiqa tinglash (musiqa idroki) faoliyatida olib boriladigan ta`limiy va tarbiyaviy ishlar mazmuni.

2.1. Musiqa tinglash o`quvchilarda musiqa idrokini shakllantirish omili.

Musiqiy-estetik tarbiya masalasi hozirgi zamon pedagogikasida eng muhim ta`lim va tarbiya masalalaridan sanaladi. Musiqiy estetik tarbiya musiqiy tarbiyaga qaraganda ancha keng tushunchadir. Bu jarayonda musiqa ta`limi (darslari) muhim o`rin tutadi, lekin u asosiy me`zon hisoblanmaydi.

Musiqiy estetik tarbiyada musiqani idrok qilish malakalarini faol rivojlantirish, san`at va ijtimoiy hayotdagi narsalarga muhabbat tuyg`usini hamda o`z his-tuyg`ularini “musiqa tili”da ijodiy namayon qilish qobiliyatini shakllantirish asosiy rol o`ynaydi.

Musiqani anglash yoki musiqiy ta`limning bosh maqsadi mazmunida ham shaxsning go`zallikni faol idrok etishiga erishish hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Musiqashunos olim va pedagog B. Asafyev bu haqda shunday fikrni bildiradi: “ Musiqa ijodida va uni idrok etishda intellectual asosni qaror toptirishdan hech qachon voz kechmaslik kerak. Musiqani tinglar ekanmiz, u yoki bu holatlarni his etib boshdan kechiribgina qolmasdan, balki idrok qilinayotgan mavzu mazmunini farqlaymiz, tanlaymiz, baholaymiz, binobarin fikr yuritimiz, mushohada qilamiz”. [].

Musiqiy-estetik idrokni, didlarni tarbiyalash, badiiy-musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish doimo aqliy va axloqiy tarbiya bilan o`zaro ta`sirda bo`ladi. Hozirgi paytdagi respublikamizda amal qilayotgan musiqiy ta`lim va tarbiya tizimi ko`pgina tarmoq-yo`nalishlardan iborat. Bular musiqa darsi, musiqa bo`yicha sinfdan va maktabdan tashqari muassasalardagi ta`lim-tarbiya, shuningdek turli to`garaklar, studiyalar, markazlar,

ansambllar, ijodiy jamoalar, maktab internatlar va hokazolar. Bu zanjirda ommaviy axborot vositalari, radio, televideniya, madaniy ommaviy tadbirlar, bayramlar ham muhim o`rin tutadi. Umumta`lim maktablaridagi musiqa darslarida o`quvchilarni musiqa sohasida har tomonlama rivojlantirish, musiqiy qobiliyatlarini, estetik didi, dunyoqarashini, nazariy savodxonligini, bir so`z bilan aytganda musiqa madaniyatini shakllantirish asosiy vazifa sanaladi. Musiqa darsining yana bir o`ziga xos tomoni unda ta`lim vazifalaridan tashqari badiiy ijrochilik vazifalari ham qo`yiladi. Darsda o`quvchilarni tarbiyalash, o`qitish, rivojlantirish, ularga ta`lim berish birgalikda va o`zaro amalga oshirilmog`i kerak. Maktab ta`limi o`quvchilarni professional musiqa faoliyatiga tayyorlashni o`z oldiga maqsad qilib qo`ymaydi. Biroq musiqani tushinish, idrok qilish va badiiy-emotsional ta`sirlanish qobiliyati har bir o`quvchiga xos bo`lmog`i kerak.

Musiqani idrok etish musiqiy obrazni inson ongida in`ikos qilishi, gavdalanishidir. Bu jarayon negizida asarni baholovchi munosabat yotadi.

Idrok etishning boshqa turlari singari musiqani idrok etishda quloq (xuddi ko`z predmetni ko`rish vositasida idrok qilgani singari) musiqiy asarning muhim xususiyatlarini, uning ifodaviy jihatlarini, vositalarini, “paypaslab ko`radi”. Bu inson sezgisi, ongi, tafakkuri, musiqiy tayyorgarlik darajasi kabi elementlar bilab bevosita bog`langandir. Shu sababli musiqaviy idrokni rivojlantirishning ilk bosqichlarida tashqi harakatlar: kuyni og`izda aytish (hircgoyi qilish), qo`shiq aytgan vaqtda tovushlar yo`nalishi harakatini qo`lda ifodalash, musiqa sadosi ostida raqsga tushish kabilar katta rol o`ynaydi.

Musiqiy idrok bir qator musiqiy xususiyatlarga bog`liqdir.

- **Emotsionallik.** Badiiy musiqiy obrazning go`zalligini, musiqata`siridauyg`onadigan his-tuyg`ular va kechinmalarini, fikrlarni boshdan kechirish;

- **Yaxlitlik, obrazlilik.** Yaxlitlik bu musiqiy materialni ayrim elementlarini-kuy, garmoniya, temp, xarakterini tushuntirish orqali amalga oshadi. Bular musiqaviy obrazni ifodalovchi xususiyatlardandi.

- **Anglanganlik.** Har qanday idrok, shu jumladan musiqaviy idrok hamfikrlash bilan (mushohada, tasavvur) chambarchas bog`langan. Musiqani idrok qilish chog`ida fikrlash emotsionalxususiyatda bo`ladi. Uning ikkinchi xususiyati musiqiy tinglash faoliyati bilan bog`liq bo`lib, usiz musiqiy idrokni o`zi ham umuman bo`lmaydi.

Asarni ma`lum darajada musiqiy idrok qilish hamma vaqt uni estetik baholash bilan va musiqaning mazmunini hamda uning ifoda vositalarini anglash bilan bog`liq bo`ladi.

Emotsionallik bilan onglilikning birligi pedagogikaning eng muhim prinsiplaridandir.

- **Assotsiativlik.**I. P. Pavlov tafakkurni assotsiasiya faoliyati deb hisoblaydi,assotsiasiyalarni esa inson psixologik hayotining universal hodisasi sifatida baholaydi.

- **Assotsiativlik**-musiqiy idrokning muhim xususiyatlaridan biridir. Asartinglanganda tinglovchida xilma-xil emotsional, obrazli ko`rish, ma`no, tasavvur, harakat bilan bog`liq kechinmalarni, boshdan kechirilgan biror narsa haqidagi xotiralarni uyg`otishi mumkin. Assotsiasiyalarning mo`lligi boy ijodiy fantaziya hamda insonning umumiy badiiy qobiliyatlarining belgisidir.

Musiqiy idrokning o`zi nima? Uning asosiy belgilari (xususiatalari) nimalardan iborat? Musiqaviy idrokka xos komponintlardan beshtasini ajratib ko`rsatish mumkin:

- Musiqaga nisbatan emotsional munosabat;
- Musiqani tinglash qobiliyati;
- Musiqiy fikrlash;

- Xotira;
- Ijod qilish qobiliyati (tasavvur);

Musiqiy asarni to`liq idrok qilishning muhim sharti diqqat e`tiborni bir yerga to`plash, tinglanayotgan asarga qaratish.

Musiqani idrok qilishga o`rgatiladimi? degansavolga ha deb javob berish mumkin.

Musiqani idrok qilishda tabiiy musiqiy qobiliyatlar ma`lum rol o`ynaydi. Lekin, pedagogik maqsadga yo`naltirilgan mashg`ulotlarda uning rivojlanishi ilmiy asosli xarakter kasb etadi.

O`quvchilar musiqa asarini yaxlit bir musiqali obraz deb tushunishi (anglash) lozim. Chunki, ma`lum bir musiqa asarida ma`lum bir his-tuyg`u, kayfiyat, mazmun o`z ifodasini topadi. Musiqa so`z bilan ifodalash qiyin bo`lgan inson his-tuyg`ularini, ruhiy kechinmalarini bayon etishi mumkin. Bolalarni kichik yoshidan ona shunday his-tuyg`u va emotsional holatlarni idrok qilishiga o`rgatib borishi kerak.

Oddiy bir-biriga qarama-qarshi bo`lgan quvonch va g`amginlik emotsiyasi past (shakllanishga, bola unga tayyor emas, uning musiqani ichdan his etishi past) bolalarda oson paydo bo`ladi. Musiqani emotsional xususiyatlarini ancha nozik va chuqur idrok qilishga esa u bilan doimiy muloqotda bo`lish orqali erishiladi. Bu o`rinda asar haqidagi suhbat, tushunchalar, mutaxassis izohi katta rol o`ynaydi.

Musiqa o`qituvchisining darsda qisqa-qisqa kirish so`zi asarning eng muhim badiiy xususiyatlarini, mazmunini, go`zalligini idrok qilishga ko`maklashadi. Asar tinglangach o`qituvchi bolalarga o`z taassurotlari mohiyatini anglashlariga, musiqani xarakteri, mazmunini so`zlar bilan ifodalashlariga, unga nimalar ko`proq yoqqanligini aytishlariga imkoniyat berishi, undashi kerak.

Musiqqa asari-bastakor yoki kompozitor musiqiy obrazni yaratishda foydalangan xilma-xil musiqiy ifoda vositalarining murakkab birligi demakdir. Bu vositalarning har biri o'zicha ahamiyatlidir. Ravon, ohangdor kuy va unga mos ritm odatda xotirjam yoki mungli, o'ychan musiqani yaratishga yordam beradi. Aksincha sakrama usulda yuqoriga qarab faol intiladigan hamda aniq, keskinroq ritmdagi kuy quvnoq, serg'ayrat, tantanali mazmundagi obrazlarga mos keladi. Temp va dinamika o'zni alohida rol o'ynaydi. Sust, osoyishta musiqqa xotirjamlik holatini, tez, baland tovushli musiqqa-sergaklik, faollik holatini vujudga keltiradi. Asar emotsionalligida musiqqa cholg'u asboblarning temblari ham juda ahamiyatli va ifodalidir.

Juda nozik, g'oyat ta'sirchan va ifodali kuylovchi g'ijjak, nay cholg'ularining temblari insonning his-tuyg'ularini, uning ruhiy kechinmalarini ifodalashga juda mosdir. Puflab chalinadigan asboblari sunray, qo'shnay, nay hayotning milliy manzaralari haqidagi tasavvurlarni tabiat ko'rinishlari bilan ifoda etadi. Duxovoy asboblarning truba, gaboy, voltarna kabi cholg'ulari temblari ko'proq harbiy mavzudagi manzaralarni ifodalashda qo'l keladi.

Musiqiy tayyorgarligi yetarli bo'lmagan bolalar odatda har bir musiqqa asboblarning ifodaviy xususiyatlarini unchalik farqlay olmaydilar (ajrata olmaydilar); ya'ni idrok etolmaydilar, shu sabab bu vositalar ular uchun psixologlar iborasi bilan aytganda "harakatsiz signallar" bo'lib qolaveradi.

Musiqqa asarini ifodaliligini tushinish qobiliyatini rivojlantirish uchun musiqqa ta'limining ilk bosqichlaridan bolalarni contrast xarakterdagi asarlarni (alla, marsh, jangovor harbiy qo'shiq, tabiat haqidagi, lirik xarakterdagi-ota-onalar, insonni fazilatlarini kuylovchi yengil, shiddatli raqs kuylari) tinglattirib ularni farqli jihatlari haqida savol-javob, suhbat, taassurotlarni o'rtoqlashish kabilarni izchil o'tkazib borish lozim.

Psixolog olim V. I. Petrushin "musiqqa psixologiya" asaridamusiqaning psixologik xususiyatlari qatorida musiqqa idrokiga ham o'z

fikr-munosabatlarini bildirib o`tadi. Uning qayd etishicha “ Tinglovchi biror bir musiqiy asarni tinglaganda uning muallifi va nomini avval eshitgan bo`lsa darhol aniqlay oladi. Har bir musiqiy asar insonning hayoti davomida orttirgan taassurotlari, kechinmalarini o`yg`otadi. Lekin, tinglovchi musiqani tinglaganda o`zining emas, balki kompozitorning kayfiyatini, kechinmalarini musiqaning ifoda vositalari orqali anglaydi”. V. I. Petrushin shu o`rinda yana musiqiy idrokni shakllantirish bu musiqiy eshitish qobiliyatini shakllantirish bilan bog`liq ekanligini ta`kidlaydi. Bunda muhit, musiqiy bilim, yoki-tajriba kabilar musiqa idrokiga sezilarli ta`sir ko`rsatadi. Olim “musiqiy idrok tafakkurning boshlang`ich bosqichi”-deydi. Bundan shunday xulosalar chiqarish mumkin:

1. Musiqiy idrok eshitish sezgisi bilan bog`liqdir.
2. Musiqani idrok etishda avvalgi egallangan taassurotlar gavdalanar ekan.
3. Kishilarning musiqiy didi ularni qurshab turgan (yashayotgan) Ijtimoiy muhiti bilan bevosita bog`liq ekan.
4. Musiqiy idrok tafakkur jarayonining dastlabki bosqichidir.

N. A. Vetlugina o`zining “Musiqani idrok etish” kitobida musiqaning ta`sirchanlik xususiyati va insonning idrok malakalarini shakllantirishda boshlang`ich voqealari haqida ahamiyatga molik fikrlarni bayon etadi. U avvalo, bolalarni musiqiy asarlarni idrok etishda musiqa tinglashning ahamiyati va musiqa tinglash sharoitini o`z metodikasi bo`lishi kerakligini alohida ta`kidlaydi. Uning ta`biriga ko`ra musiqa kishida turli xil his, kayfiyat uyg`otadi, qo`shiqning matni g`oyaviy mazmuni faqat hissiyotga emas, tinglovchining ongiga ham ta`sir qilib, uni hayajonlantiradi, fikrlashga majbur qiladi.

B.A. Asafyev musiqa tinglash yoki musiqani idrok etishni ikki xil ma`noda tushuntiradi:

1. Musiqa tinglovchining o`z ijrosi bilan uyg`unlashib, undan zavqlanib musiqa tinglash hayotiy ehtiyojga aylanadi.

2. Tinglovchi butun vujudi bilan uni his etib, musiqani haqiqiy bilimdoni sifatida anglaydi.

Bundan ko`rinadiki, B. Asafyev musiqa tinglovchilarini ham farqlaydi. Musiqani haqiqiy bilimdoni (maxsus tayyorgarlikka ega bo`lgan) boshqacha tinglaydi va shunchaki havaskor boshqacha tinglaydi deb o`qtiradi. Tabiiyki, maxsus bilimga ega mutaxassis musiqani idrok etar ekan, u musiqa ijodkori, asar janri, shakli, xarakteri, ifodalovchi vositalari haqida bermalol fikr yurita oladi. Havaskor tinglovchi esa faqatgina musiqaning xarakteri, badiiy obrazi haqida qisman tushuncha beradi.

Asarni bilishning ikkinchi bosqichiga o`quvchi (tinglovchi) asar haqida o`z fikrini ayta bilishi, uning g`oyaviy-badiiy mazmuniga, saviyasiga baho berishi, xarakterli xususiyatlarini tahlil qilishi kerak. Bunda tanqidiy yondashish, san`atshunoslikka oid bilimlar mujassamlashadi. Musiqa tinglash yakkanavoz va jo`rnavozlikni, ansambllikni ajrata bilish, sozlar va sozlar tembrini farqlay olish, musiqiy did va idrokni rivojlantirish, o`zbek, qardosh va jahon xalqlari bastakorlari asarlaridan namunalar eshitish kabi musiqiy-nazariy bilimlarni o`z ichiga oladi. Ushbu bilimlarni o`zlashtirish bolalarning musiqiy-estetik saviyasini oshiradi.

Bolalarni, musiqiy mashg`ulotlarda o`quvchilarni musiqani idrok etish malakalarini shakllantirish, uning tilini tushunish, har bir o`quvchining o`z sevimli musiqiy asarlari doirasini paydo qilish, ularda musiqiy asarlarning mualliflariga nisbatan minnatdorlik hissini uyg`otish, milliy, zamonaviy va mumtoz musiqaga nisbattan barqaror qiziqishni uyg`otish muhim vazifalardandir.

Musiqiy ta`limning dastlabki bosqichlaridan, imkon qadar bolalar bog`chalaridan (maktabgacha ta`lim muassasalari) bolalarni yoshlariga mos

bo`lgan o`z tuzilishi, mazmuni jihatdan go`zal, yuksak g`oyalarni, o`tmish va kelajakni aks ettiruvchi musiqa asarlarini tinglashga odatlantirib borish lozim. Bolalar oilada, radio, telivideniya orqali, shuningdek, turli madaniy-ommaviy tadbirlarda, konsertlarda, jamoat joylarida doimo oshno bo`ladilar. Ammo, ular tinglaydigan musiqa asarining ko`pchilik qismi bolalarning yoshiga, ularning ruhiyatiga, mos emasligi bois ularni maqsadga muvofiq idrok etaolmasliklarini hisobga olish to`g`ri bo`ladi. Shuning uchun ta`lim jarayonidagi ma`lumotlar bolalarning hayotiy musiqiy faoliyatida boshqaruvchi, tarbiyaviy maqsadga yo`naltiruvchi badiiy-axloqiy tarbiya vositasi sifatida rol o`ynashiga erishish lozim.

Musiqa mashg`ulotlarining har bir faoliyati tarbiyaviy maqsad va vazifalarga qaratilgan bo`ladi. Lekin, ular orasida jamoa (xor) bo`lib qo`shiq kuylash va musiqiy asar tinglash jarayonlari bolalarni musiqiy didini shakllantirishda ko`proq rol o`ynaydi. Bolalarda musiqaga havas, uni o`rganish, kuylash va tinglashga chinakam qiziqish o`yg`otish uchun ularning eshitayotgan asarlarini sevishi katta ahamiyatga egadir. Bu xislat faqat yuksak badiiy-estetik saviyadagi asar vositasida amalga oshiriladi.

Musiqiy tarbiyani amalga oshirishda o`quvchilarni nafaqat musiqa asarini ijro etishga, balki musiqani emotsional va ruhan idrok etishga o`rgatish kerak. Qo`shiq tinglanganda nisbatan bir muncha idrok etish osonroq kechadi. Qo`shiq o`rgatish metodlariga ko`ra musiqa o`qituvchisi, qo`shiqni o`rgatishdan avval uni o`zi ijro etib beradi. Musiqani idrok etish uchun buni o`zi kamlik qiladi. Shuning uchun o`qituvchi bolalarni o`zlari kuylaydigan qo`shiqlaridan murkkabroq kuy va qo`shiqlarni tinglashga o`rgatishi kerak. Metodik jihatdan yaxshi malakaviy tayyorgarlikka ega bo`lgan o`qituvchi zamonaviy texnika vositalaridan foydalangan holda bolalarning musiqani asl mohiyatini tushunishlari, uning ma`noli, badiiy qimmatini anglashlariga erishishi mumkin. Shuni ham e`tiborda tutish

kerakki, texnika vositasida eshitilgan asarga nisbatan musiqa o`qituvchisining o`z ijrosi bolalarda ko`proq taassurot qoldiradi. Agar o`qituvchi musiqa asarini avval o`zi ijro etib, sungra uni texnika vositasi orqali eshittirsa natija yuqoriroq bo`ladi.

Qo`shiq kuylash jarayonida bolalar musiqani chuqurroq idrok etadilar, o`z kechinma va his-tuyg`ularini faolroq ifodalaydilar. Qo`shiqning matni bolalarga musiqa mazmunini tushinish, kuyni osonroq o`zlashtirishlarini yengilroq kechishiga yordam beradi. Cholg`u asboblarda ijro etilgan kuyga nisbatan ovozda ijro etilgan asarni bolalar yaxshiroq idrok etadilar.

Qo`shiq kuylash jarayonida musiqiy qobiliyatlar rivojlanadi. Musiqani eshitish, musiqiy xotira, ritm hissi, lad hissi rivojlanadi.

Qo`shiq kuylash bola ruhiyatiga ta`sir qilishi barobarida uni jismoniy o`sishi, rivojlanishiga ham katta ta`sir ko`rsatuvchi omildir. Jamoa bo`lib kuylash jarayonida o`quvchilarning diqqat-etiborlari, ongliligi, faolligi, musiqiy xotirasi shakllanadi, va o`rgangan qo`shiqlarni ijro etganda zavqlanish hissi paydo bo`ladi. Qo`shiq so`zining ma`nosi va musiqa ohangini idrok etish orqali hayotni o`rganadilar.

Qo`shiq kuylash bolalarning nutqini ham rivojlanishiga samarali ta`sir etadi. Qo`shiq matni mazmunan qo`shiq kuyini anglashga yordam beradi. Qo`shiq o`quvchilarda hayotiy kechinmalarni, hissiyotlarni qanchalik ko`p uyg`otsa uning o`quvchilar ongiga va idrok etish qobiliyatlari rivojiga ta`siri shuncha katta bo`lishi mumkin. Bu holat san`atning nafaqat musiqa, balki, barcha turlariga xosdir.

Insonning dunyoni bilish, anglash, go`zallikni idrok qilish tuyg`ulari u to`qnash keladigan hamma narsalarni: tabiat hodisalari, manzaralari, turli predmetlar, ularni rangi, farqi, san`at asarlari, ularning nafisligi, ijodiy mehnat va mahorat mahsuli ekanligi, insonlar o`rtasidagi munosabatlarni qamrab oladi.

Bu jarayonlarda idrok qilinayotgan narsa go`zal yoki xunuk, yoqimli yoki yoqimsiz, kulgili yoki fojiali, ulug`vor-tuban, mavzu va mazmun mutonosibligi munosib yoki no munosib tarzida baholanadi. Bunday baholash ba`zan mos keladi, ba`zan farq qiladi. Aniqroq qilib aytganda har qanday baholash nisbiy tarzda bo`ladi. Lekin, mana shunday baholashning ba`diy-estetik did va idrokning shakllanishidagi va shakllanganlik darajasini belgilashdagi ahamiyati kattadir.

Barcha kechinmalar, baholar, afzal ko`rish go`zallikni barcha narsalarda, shu jumladan, eshitib idrok qilinadigan musiqa asarida anglash, go`zallikni yaratishga intilish, mukammallik va go`zallik to`g`risida, ko`ringan, duch kelgan, tinglangan san`at asari haqida taassurotlarni o`rtoqlashish-bularning barchasi hayotga estetik munosabat yoki estetik ongni belgilovchi mezonlardir. Estetik munosabatlar shakllangan insonda u yaxshi didni, chiroyli narsalarni ko`rgan, yoqimli musiqani tinglagan paytda bo`ladigan emotsional hissiyotni, uni idrok etish, baholash hamda ularni nima uchun yoqqan yoki yoqmaganligi to`g`risidagi fikrni o`z ichiga oladi. Shuning uchun musiqa mashg`ulotlarida tinglangan musiqa haqidagi o`qituvchining tahliliy so`hbatlari, asar mazmuni, xarakteri, mavzuga mosligi, mualliflari, ifoda vositalari haqida o`quvchilarga beradigan savollari va ularni o`z taassurotlarini so`zlab berishga undashi musiqiy idrokni rivojlantirishda munim ahamiyat kasb etadi. Taniqli pedagog V.A.Suxomlenskiy shunday fikrni bildiradi: “kichkina bola o`zi ko`rgan, eshitgan chiroyli narsalarni kashf etar, go`zallikdan zavqlanar va hayratga tushar ekan, u go`yo ko`zguga qaragandek va unda o`zining insoniy go`zalligini ko`rgandek bo`ladi. Bu go`zallikni u qancha erta his qilsa va undan qanchalik nozik hayratga tushsa, uning o`zini qadrlash hissi shunchalik yuqori bo`ladi... Be istisno har bir bolaning go`zallikni ko`rishini, idrok qilishini uni ko`rganda, eshitganda hayratlanishini, zavqlanishini, go`zallikni o`z ma`naviy hayotining bir

bo'lagiga aylantirishini, so'z va obraz, ifoda go'zalligini his qilishini o'zim uchun ideal hisoblayman". [36-38-betlar]

Shuni esda tutish kerakki, insonning ko'rish va eshitish, sezish va hid bilish a'zolari mashq qildirilgan, tarbiyalangan, boyitilgan taqdirdagina estetik faoliyatga to'la –to'kis kirishadi. Shuning uchun ham musiqa ta'limi va tarbiyasida ham mazkur sezgilarni tarbiyalash eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Musiqa tinglansa-yu idrok etilmasa bunday faoliyat shaxsning estetik kamolati uchun befoyda, ma'nosiz bo'lib qoladi. Shunday ekan, musiqa tinglash faoliyatida har bir asarni go'zal ijod namunasi ekanligi, musiqiy-ba'diiy xususiyatlari, mavzu, mazmun va ohanglar mutanosibligi, go'zal va mahoratli ijrosidan emotsional zavq olishiga, ularga estetik baho berishga o'rgatib bormoq kerak. Hayotning hamma sohalari qatori musiqa san'atida go'zallik qonunlarini o'zlashtirib borishga yordam beradigan xilma-xil qobiliyatlar bolalarning o'z ijodi-kuy, raqs yaratish, bolalar cholg'u asboblarida ijro etish, rasm chizish kabilarda muvaffaqiyatli rivojlanadi. Musiqa tinglash jarayonida har bir bola asarda ifodalangan obraz, voqeylik, his-tuyg'ularga, san'atkorning tasvirlangan narsaga munosabatini, uning his-tuyg'ulari va fikrlarini o'z ichiga oluvchi muallif fikrini o'qib olishni o'rganibgina qolmasdan, balki hayotdagi u yoki bu hodisalarga o'z munosabatini ifodalashning vositasi bo'lgan san'at "tili" ni erkin egallab olishi ham muhimdir. Binobarin, ijodiy rivojlanishga idrok etish bilan faoliyat o'rtasida mustahkam aloqa bo'lishini taqozo etuvchi jarayon deb qaralmog'i kerak. U yoki bu mavzu hamda xarakterdagi (Xalq musiqasi, zamonaviy, estrada, mumtoz va hokozolar) asarni tinglash va idrok etganda o'quvchining ijodiy tafakkurini, birinchi navbatda ijod usullari va asarni ifodaviy xususiyatlari to'g'risidagi bilimlariga tayanadi, buning natijasida badiiy ijod, shakl, usul, vositalarning asoslarini idrok etish shakllanadi.

Musiqiy asarlarni tinglash, idrok etish, musiqa asari mazmunini, kayfiyatini anglash jarayonida o`qituvchi o`quvchilarga yaqindan yordam berib borish kerak. Buning uchun o`qituvchi:

- O`quvchilarni tinglanadigan musiqa asariga hissiy tayyorlaydi;
- O`quvchilarda tinglash madaniyatini shakllantiradi (ko`nikma hosil qiladi);
- Musiqaning mazmuni, ifoda vositalari, janri, xarakteri oddiy tahlil qilishga o`rgatadi.
- Musiqa haqida fikr yuritish, asarga estetik baho berish ko`nikmalarini hosil qiladi;
- Oldin tinglangan, o`rganilgan asarlarni esga olish, asarning nomi va mualliflarini aniqlash;

Tinglashdan oldin o`quvchilar diqqatini jamlash, faollashtirish uchun o`qituvchi o`quvchilar oldiga ularning musiqiy tayyorgarligi darajasidan kelib chiqqan holda turli vazifalar qo`yishi mumkin:

1. Bolalar imkoniyati, musiqiy qobiliyatlari darajasiga mos kuy, ya`ni musiqiy asarni o`quvchilarga tinglash uchun beradi va “siz bu asarga qanday nom bergan bo`lardingiz? degan savolni o`rtaga tashlaydi”.

2. Bir musiqa asari, masalan, M. Mirzayevning “Bahor valse” kuyini tinglating va asar nima uchun bunday nomlanganini o`quvchilardan so`raydi.

3. Tinglash uchun berilgan kuyning kayfiyatini (xarakterini) aniqlash vazifasini beradi.

Bunday vazifa va savollar o`quvchilarga musiqani tinglash (diqqat bilan) hohishini kuchaytiradi, natijada musiqiy idrokni faollashtiradi.

O`quvchilar asar mazmunini, musiqiy nutq vositalarining ifodaviyigini anglashga harakat qiladi.

Musiqiy idrokni hissiy jihatdan faollashtiruvchi va boyituvchi quyidagi usullardan foydalanish yaxshi natija beradi.

- Bolalarga tanish bo`lgan asarni yangi ijroda, yangi talqinda berish;
- Turli talqin va ijro usullarida berilgan bir asarning o`zini taqqoslash;
- O`qituvchining jonli ijrosi;
- O`qituvchining kirish so`zi;
- Yuqori sifatli audio va SD yozuvlaridan foydalanish;
- Musiqa asarini turli templarda, contrast qilib kuylash;

Musiqa idroki musiqa asarini o`rganish va tinglash jarayonida rivojlanadi vabu jarayon to`rt bosqichda amalga oshiriladi;

- O`qituvchining kirish so`zi;
- Musiqiy asarni tinglash;
- Musiqiy asarni tahlil qilish;
- Qayta tinglash;

Endi bu bosqichlarni alohida ko`rib chiqamiz:

O`qituvchining kirish so`zi- qisqa, emotsional, qiziqarli bo`lib, asosiy maqsad-bolalarning diqqatini tinglanadigan asarga jalb etish, unga qiziqish uyg`otishdan iborat bo`ladi.

O`qituvchi o`zining kirish so`zida bolalarga asar muallifi haqida qisqacha so`zlab berishi mumkin. Ba`zida esa, kirish so`zi bir necha savollardan iborat bo`lib, bolalar idrokini faollashtirish, ularda musiqani tinglashga katta ishtiyoq, qiziqish hosil qilishi kerak.

Musiqiy asarni tinglash- o`quvchilarni musiqani tinch, gaplashmasdan, bir biriga xalaqit qilmasdan tinglashga o`rgatish birinchi galdagi vazifadir. Asar boshidan oxirigacha ifodali, badiiy ijroda gramyozuv orqali yoki o`qituvchi ijrosida bo`lishi mumkin. Musiqa jaranglagan paytda o`qituvchining o`zi ham musiqani berilib tinglashi, ko`rsatma, savol

bermasligi, yozuv-chizuv ishlari bilan shug`ullanmasligi lozim, ya`ni o`qituvchi musiqiy asarni o`quvchilar bilan birga tinglashi kerak.

Musiqqa tahlili- musiqani tinglashdan oldin hissiy ta`sirni chuqurlashtirishga qaratiladi. Bu murakkab va o`quvchidan mahorat talab qiladigan bosqichdir.

Asarni tushunish va his etish barchada bir xil kechmaydi. Tahlil ko`pincha hissiy idrokka xalal ham berishi, tinglashga hohishni susaytirishi ham mumkin. Agar ifoda vositalari mazmundan ajratilgan holda ko`rib chiqilsa, shunday hol ro`y berishi mumkin. Musiqqa savodidan yaxshi bilimga ega o`quvchilar musiqqa tahlili jarayonida o`z bilimlarini bimalol qo`llaydilar. Musiqqa tahlili ko`p hollarda quyidagi savollar yuzasidan o`tkaziladi:

1. Mazmun va xarakter;
2. Musiqiy janr;
3. Musiqqa qanday o`zgaradi?
4. Musiqiy shakl;

Musiqqa tahlili asosida o`quvchilarning musiqaning mazmun, mohiyatiga kiribborishlari asosiy musiqiy qonuniyatlarni tushunib yetishlari bosqichma-bosqich tizimli ravishda hosil bo`ladi.

Qayta tinglash- o`quvchilar musiqani to`laroq idrok etishlari, anglab, eslab qolishlari, asarni yoqtirib qolishlari uchun bir necha bor qayta tinglash maqsadga muvofiq. Chunki, bir marta tinglangan asar darhol bolalarga yoqadi, hamma bolalar tomonidan yetarli darajada emotsional qabul qilinadi deb aytib bo`lmaydi. Musiqiy asar o`quvchining musiqiy tajribasiga aylanishi uchun bir necha bor qayta tinglash jarayoni idrokni boyitishi, musiqiy obraz tasavvurini chuqurlashtirishi va asarning esda qolishini ta`minlashi lozim.

Musiqiy obrazlarni taqqoslash-qiyoslash metodi o`quvchilarda musiqqa idrokini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Bu metotdan ham o`rinli foydalanish o`quvchilarning musiqiy-eshitish qobiliyatlarini o`stiradi. Bu

o`rinda dastavval kontrast asarlardagi farqlarni anglash, keyinchalik esa, xarakteri har xil bo`lgan asarlardagi nozik o`xshashliklarni aniqlash va o`quvchilarni his etishlariga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda musiqa darslarida o`quvchilarni tinglanadigan, kuylanadigan musiqa asarlarini to`la musiqiy idrok etishlariga erishishda ularni musiqa mazmunini his etish, eshita bilish, anglash, obrazli tasavvur qilish, baholash, hissiy kechinmalari asosida o`zlashtirishlariga erishish hal qiluvchi omildir.

2.2. Musiqa tinglash jarayonida o`quvchilarning musiqani idrok etish ko`nikma va malakalarini shakllantirish uslublari.

Umumiy o`rta ta`lim maktablarining “Musiqa madaniyati” darslaridagi musiqa tinglash bilan bog`liq o`quv jarayonlarini kuzatuvlarimizda shu narsa ko`proq diqqatimizni tortdiki, nisbatan boshlang`ich sinflarda musiqa tinglashga o`rgatish, o`quvchilar diqqatini tinglanayotgan asarga jalb qilish, asarni shunchaki tinglash asosiy maqsad emas, balki uning mazmuni, mohiyati, xarakteri, kayfiyatini, shu tariqa mashg`ulotlarni davomiyligida musiqiy asarlar janrini, shaklini, metro-ritmikasini, ijrochilik uslublarning o`ziga xoslik jihatlarini anglash, his etish, idrok etish asosiy o`rin tutishini tushuntirish anchayin murakkab jarayonda kechadi.

Yana shu narsani ta`kidlash joizki, ayniqsa, ta`limning dastlabki bosqichida, aniqroq qilib aytadigan bo`lsak, birinchi va ikkinchi sinflarda pedagog-o`qituvchining musiqa darslarida ko`proq vaqti, mehnati o`quvchilarni musiqa tinglashning turli faoliyatiga moslashish ko`nikmalarini tarkib toptirishga sarflanadi. Musiqa eshitib, uni idrok qilish, badiiy-estetik va emotsional his etish uchun avvalo uni diqqat bilan tinglashga odatlanish kerak. Eslatib o`tganimiz, birinchi, ikkinchi sinf o`quvchilari musiqani

tinglash jarayonida uning umumiy xarakteri, kayfiyatini tasavvur qilsalarda, asarning ifoda vositalari, muallif g`oyasi kabilarda tasavvurlari mavhum va tushunarsiz bo`ladi. Bu bosqichda o`quvchilarga musiqa ijodi va ma`lum bir ijodkorning hayotiy tasavvurlari, fantaziyasi va hayotiy taassurotlari, kechinmalari mahsuli ekanligi (shu xususiyatlar natijasi sifatida yaratilishi, vujudga kelishi mumkinligi) to`g`risida qisqacha misollar keltirish bilan tushunchalar berish, shundan so`ng musiqani ifodalovchi vositalariga o`tish, bu o`rinda kuy, registr, temp, dinamik belgilar va tovush tovlanishlari-tembr kabilar haqida bilimlar berish maqsadga muvofiq bo`ladi.

Bu jarayonda o`quvchilarni musiqani anglash, farqlash, qiyoslash, uni his etish, baho berish (musiqiy did) qobiliyatlari rivojlanib, aniqlik kasb etib boradi.

Amaliyot shuni ko`rsatadiki, birinchi va ikkinchi sinf o`quvchilari musiqaning ifodalovchi vositalari haqida ma`lum tushunchaga ega bo`lishlari ularni o`z navbatida majorni (musiqaga ko`tarinki ruhda, jarangdor, tantanali, quvnoq) va minorni (sokin, bir oz ma`yus, osoyishta, lirik va hokazo) anglash (farqlash) lariga yordam beradi.

Didaktikaning oddiydan murakkabga tamoyili alohida tashkil etilgan mashg`ulotlar va tizimli yo`naltirilgan bilimlar majmuini o`zlashtirish natijasida uchinchi va to`rtinchi sinflarda o`quvchilar endi musiqaning mohiyati va mazmuni haqida ko`proq bilishga qiziqqa boshlaydilar. Ta`limning mazkur bosqichida musiqa haqidagi "so`z" muhim ahamiyatga ega bo`lib, yuqori o`ringa chiqadi.

Tinglanayotgan musiqa asarining nomi, matnning g`oyaviy-badiiy mazmuni (bolalarning umumiy tushunis, anglash imkoniyatlariga mosligi) haqida o`qituvchining tushuntirishlari (tahliliy suhbatlar) bu o`rinda katta rol o`ynaydi. Shu tariqa o`quvchilarda musiqiy asar mazmuni haqida mushohada yuritish, uni obrazli tasavvur etish ko`nikmalari shakllanib boradi.

Umumta`lim maktablari musiqa madaniyati darslaridagi tinglanayotgan asarlar fanning o`quv dasturi (yil va choraklar bo`yicha tavsiya etilgan) ga muvofiq tanlansa-da, darslarni qay tarzda uyushtirishni o`qituvchining o`zi belgilaydi. Zero, musiqa madaniyati darslarining bir necha faoliyat negizida (musiqa tinglash, qo`shiq kuylash, musiqa savodi, musiqali ritmik harakatlar bajarish, bolalar cholg`u asboblari jo`r bo`lish, yuqori sinflarda dastlabki uchtasi) tashkil etiladi va dars rejasida yangi mavzuni o`tish, takrorlash, o`quvchilar bilimi, uy vazifalarini bajarilishini nazorat qilish kabilar ham o`z ifodasini topishi lozim bo`ladi.

Musiqa darslarida eng ko`p qo`llaniladigan dars turlaridan biri bu aralash dars turidir. Bizning amaliy tajriba va kuzatuvlarimizda ayrim maktablarda musiqa o`qituvchilarning aksariyatini musiqa o`qitish metodikasidan yetarli bilim, malaka va tajribaga ega emasliklari (nopedagogik ta`lim muassasalarini bitirganlar-madaniyat va san`at instituti, san`at kollejlari), shuningdek, musiqa darslarini zamonaviy talablar darajasida olib borish uchun yetarli shart-sharoitlarni yo`qligi, yaratilmaganligi, musiqa cholg`u asboblari, musiqa eshitish vositalari bilan yetarli darajada ta`minlanmaganligi sabab-musiqa ta`limidagi eng muhim bo`lgan musiqa tinglashni amalga oshirish, shu jarayonda o`quvchilarni o`zbek mumtoz, folklor musiqasi, zamonaviy janrlarda yaratilgan asarlar, qardosh va jahon xalqlari musiqa madaniyatining eng nodir namunalaridan bahramand qilish, tanishtirish orqali ularning musiqiy tafakkuri, dunyoqarashini shakllantirish imkoniyati cheklanib qoladi.

Musiqa darslarini faoliyatlar negizida pedagogikva metodik jihatdan to`g`ri tashkil etishni uchinchi sinf dars mavzularidan biri misolida, aralash dars turi rejasi quyidagicha bo`lishi maqsadga muvofiqligini ko`rsatadi:

Mavzu: Intonatsiya ustida ishlash. "Ota-onalarga" qo`shig`ini o`rganish.

I- Darsning maqsadi:

1. Ta'limiy maqsad: Intonatsiya haqida tushuncha berish, yangi qo'shiq o'rganish, oldingi o'tilgan mavzuni mustahkamlash va egallangan bilimlardan unumli foydalanish.

2. Tarbiyaviy maqsadi: O'rganilayotgan qo'shiq orqali Vatanga, xalqimizga nisbatan mehr-muhabbat uyg'otish, milliy musiqamizga, milliy urf-odatlarimizga hurmat, ulardan faxrlanish tuyg'ularini uyg'otish.

3. Shakllantiruvchi maqsad: Mustaqil fikrlay olish, o'z musiqiy Qobiliyatini-eshitib aniqlash, to'g'ri o'tirish, qo'shiq kuylaganda to'g'ri nafas olish, ovoz apparatidan o'rinli foydalanish malakalari, estetik did va dunyoqarashni shakllantirish.

4. Rivojlantiruvchi maqsad: Mustaqil fikrlay olish, o'z fikr va mulohazalarini bayon eta olish, boshqa o'quvchilarning xato-kamchiliklarini to'g'ri topib, ularni tuzata olish.

5. **Darsning turi:** Bahs-munozaraga asoslangan intellektual o'yin.

6. **Darsning ko'rgazmaliligi:** Darslik va qo'shimcha adabiyotlar, cholg'usobi (pianino, rubob, akkordeon), magnitafon yoki gramplastinka, kartochnka va plakatlar.

7. Darsning rejasi:

1. Musiqa sadosi ostida o'quvchilar sinfga kiradilar va joylariga o'tiradilar (o'rganishi yoki eshitishi kerak bo'lgan qo'shiq bo'lsa yana yaxshi).

2. Eshitilgan musiqa yuzasidan fikr-mulohazalar almashinadi. (musiqiy asarningmuallifi, qanday janrga xosligi, tempi (sur'ati), ritmi (usuli) tonligi va hokazo.

V- **Yangi mavzu:** "Tonika". Kuyning tayanch nuqtasi-tonikadir. Har

bir tonlikda tonika mavjud. Musiqiy asarlar o`z yozilgan tonligining tonikasida tugaydi va hakazo.

- O`rganishimiz kerak bo`lgan "Ota-onalarga" qo`shig`ini tinglaymiz. O`quvchilar qo`shiq borasidagi o`z fikr-mulohazalarini bildiradilar. Qo`shiqning kompozitori haqida o`qituvchi so`zlab beradi. Yangi mavzuga bog`langan holda asarning tonikasini topishni o`qituvchi o`quvchilarga vazifa sifatida beradi.

- Qo`shiq o`rganib kuylaymiz. (ovoz sozlovchi mashqlar bilan ovoz sozlanadi) qo`shiq kichik jummalarga bo`lib o`rganiladi.

- O`qituvchi o`quvchilar bilan qo`shiqni musiqiy (tonligi, o`lchovi, tempi, dinamikasi....) va mazmuniy (Ota-onaga nisbatan mehr-muhabbat, hurmat tuyg`ulari va hakazo) jihatdan tahlil qilib, o`quvchilar fikrlarini to`ldiradi va qo`shiqning tarbiyaviy ahamiyatini ochib beradi.

O`quvchilarni musiqiy tarbiyalashda ularning musiqiy idrokini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Musiqa darsini sifat ko`rsatkichlaridan biri bo`lgan mazkur jarayonni shakllantirishda ijtimoiy-psixologik xususiyatlar muhim o`rin tutadi.

Musiqa idroki (tinglash) barcha faoliyatlar amaliyotida yetakchi xususiyatga ega ekanligi davlat ta`lim standartida ham alohida ta`kidlangan. Shu nuqtai-nazardan, ta`lim jarayonini musiqiy idrok shakllanishiga ta`sir etuvchi quyidagi ijtimoiy-psixologik omillardan kelib chiqqan holda tashkil etish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, musiqiy tarbiyani amalga oshirishda avvalo, o`quvchilarning qiziqishi, qobiliyati va iqtidori, estetik dunyoqarashi, musiqiy o`quv darajasining rivojlanganligi, xarakter va irodaviy xususiyatlarining uyg`unligidan kelib chiqishi lozim.

Bolalik davrida musiqiy idrok musiqa ijrosini kuzatish shaklida namoyon bo`lsa, o`spirinlik davrida-musiqiy tafakkur shaklida rivojlanadi.

Bundan tashqari, musiqiy asarlarni idrok qilishda emotsiyalar ham ma`lum ahamiyat kasb etib, ularda insonning borliqqa, insonlarga, o`z-o`ziga munosabati ifodalangan. O`quvchi tomonidan qaysi musiqa asarining qanday mazmunda qabul qilinishi uning shaxsini individual belgilaydi.

Musiqiy idrok tizimida qiziqish va ehtiyoj o`quvchining har doim tinglab yurgan musiqa asarlari asosida shakllanadi. Musiqiy qiziqishlarning be`vosita va bilvosita namoyon bo`ladigan xillari mavjud.

Bevosita qiziqishlar musiqa materialining hissiy jihatdan jozibaliligi natijasida paydo bo`ladi. Masalan, G`.Qodirov musiqasi, O`. Rashid she`ri bilan “Bahor qo`shig`i”, A. Mansurov musiqasi, K. Botirov she`ri bilan “Qo`g`irchog`im-o`yinchoq” qo`shiqlari bu jihatdan e`tiborli.

Bilvosita qiziqishlar esa ma`lum musiqa asarining real ijtimoiy ahamiyati bilan uning o`quvchi uchun subyektiv ahamiyati bir-biriga mos kelgan taqdirda paydo bo`ladi. Masalan, A. Oripov she`ri, A. Nazarov musiqasi “Men nechun sevaman O`zbekistonni”, Q. Komilov musiqasi, N. Rashidov so`zi bilan “Vatan degan nimadir o`zi” qo`shiqlari.

Ko`rinib turibdiki, o`quvchi-yoshlar qo`shiq va kuylarni asosan, bevosita qiziqishlar orqali tinglab, idrok etishga harakat qiladilar. Bunday shakldagi idrok jarayonida musiqaning asosan tashqi jihati o`ziga jalb etadi. Bu emotsionallik mohiyatining ustunligi bilan bog`liq masala sifatida ahamiyatlidir.

Ikkinchidan, milliy va ma`naviy xususiyatlar sifatidagi mehnatsevarlik, irodalilik, mardlik, oriyat, kamtarlik, urf-odat va an`analarga sadoqat kabi fazilatlar ham o`quvchilarning musiqiy idroki shakllanishi va rivojlanishida muhim o`rin tutadi.

Musiqa tinglash va kuylash jarayonida har bir o`quvchida namoyon bo`ladigan yuqori xarakter xususiyatlardan samarali foydalanib, idrokning yaxlitligiga erishish mumkin.

Uchinidan, o`qituvchi shaxsi va uning musiqa darsining qay darajada tashkil qilishi hamda o`quvchining sinfdosh, maktabdosh do`stlari, oila a`zolarining musiqaga munosabati (muhabbati, e`tibori yoki aksincha) musiqiy idrokni shakllanishiga samarali ta`sir etadi.

To`rtinchidan, musiqa san`ati abstrakt san`at turlaridan biri bo`lganligi uchun uni idrok qilishda o`ziga xos xususiyatlar mavjud. Masalan, tinglanadigan musiqa vokal dasturli cholg`u asari bo`lsa, uni idrok qilish ma`lum yoki dastur asosida amalga oshiriladi. Asar erkin mavzuda yozilgan cholg`u asari bo`lsa, tinglovchidan ma`lum tasavvur, tafakkur va badiiy-estetik tajriba talab qilinadi.

Musiqa o`qituvchilariga o`quvchilarda musiqiy idrokni shakllantirishga xizmat qiluvchi quyidagi maslahatlarni beramiz:

- Dars davomida musiqiy faoliyatni amalga oshirish uchun qulay psixologik iqlim yaratish;
- O`quvchilar bilimini baholashda qobiliyati emas, balki ijodiy faoliyatini nazarda tutish;
- Kuylash paytida o`quvchilarning individual –psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib, shu asosida tegishli faoliyatga jalb qilish;
- O`quvchilarda yuksak badiiy talablar darajasidagi musiqa asarlarini tinglashga ehtiyojni doimiy tarbiyalab borish;
- Darsda turli xarakter va mazmundagi musiqalarni tinglash orqali o`quvchilarni muloqatga jalb etib, fikrlarini eshitish;
- Turli psixologik-pedagogik ta`sir metodlari (emotsional ta`sir, hayrat effekti, rag`batlantirish) dan foydalanib, o`quvchilarni musiqiy faoliyatga qiziqtirish.
- Darsda o`zbek xalq cholg`ularidan keng foydalanish orqali milliy musiqaga ijobiy munosabatni shakllantirish;
- O`quvchilarda musiqani ongli idrok etish motivlarini shakllantirish;

Yuqorida sanab o`tilgan ish usullari yaxlit holda musiqiy idrokni shakllantirishga qaratilsa, musiqaning o`quvchi-yoshlarni ma`naviy va estetik tarbiyalashdagi imkoniyatlari yanada kengayadi.

Endi, biz o`zimizning amaliy tajribalarimiz jarayonida qo`llagan ish usul, metodlarining va ularning tashkiliy-uslubiy o`ziga xos eng muhim jihatlarga umumta`lim maktablarining musiqa darslarini 1-7-sinflar, kesimida to`xtalib o`tamiz:

- Musiqani eshitish va tinglashni o`rgatish orqali o`quvchilarni musiqani idrok etish ko`nikma va malakalarini shakllantirish birinchi sinfda musiqa o`qituvchisi oldiga bir qator vazifalarni qo`yadi. Avvalam bor o`qituvchi o`quvchilarga musiqa san`atini hayotimizdagi tutgan o`rni, uni boshqa san`at turlaridan farqi, o`ziga xos ifodaviy “tili” haqida zarur tushunchalarni berishi lozim.

Musiqani his qilish uchun, tushunish, anglash, idrok etish uchun uni tinglay bilish, ya`ni musiqa tinglash madaniyatini egallash kerak. Buning uchun musiqani eng muhim ifoda vositalari-kuy harakati, ritmi, sur`ati, registrlarining ahamiyati, dinamika, lad bo`yoqlari haqida har bir tinglash faoliyatida tushuntirib borish lozim. Metodist o`qituvchilar musiqa tinglash faoliyatini ko`pincha 4-ta shartli bosqichda o`tkazishni ma`qul ko`rishadi:

1. Kirish so`zi.
2. Musiqiy asarni tinglash (o`qituvchining jonli ijrosi yoki texnik vositayordamida).
3. Tinglangan asar haqida suhbat.
4. Qayta tinglash.

Ikkinchi sinf o`quvchilari o`zlarining fiziologik va psixologik xususiyatlar bilan birinchi sinf o`quvchilardan ko`p farq qilishmaydi. Lekin, bir yillik tahsil ularni musiqiy qiziqish, qobiliyat, ko`nikma va malakalarini rivojlanishiga muayyan darajada o`z ta`sirini o`tkazganligini unutmaslik

darkor. Shuning uchun ham ikkinchi sinf o`quvchilari bilan ishlashda bularni et`iborga olgan holda ish tutish lozim bo`ladi.

Ikkinchi sinfda ham musiqa tinglashga darsning yetakchi turi sifatida qarash metodik jihatdan to`g`ri bo`ladi. Zero, darsda qo`llaniladigan barcha faoliyatlar va o`zlashtiriladigan bilim, malaka va ko`nikmalar asosan eshitish orqali (kuylash, bolalar cholg`ularida chalish, raqs, ritmik harakatlarni bajarish) amaliy faoliyatga ko`chadi. Musiqa tinglash jarayonida o`qituvchi o`quvchilarning musiqaning uch asosiy turi-qo`shiq, raqs, marshni, musiqiy janrlarni o`ziga xos turlarini ya`ni uch asosiy turni, yirik asarlarda mujassamlashuvi, ijroda jo`rnavoqlik, yakkanavoqlik, ansambl, yakkaxonlik kabilarni anglab borishlariga ahamiyat qaratiladi.

Tajribali mutaxassiy pedagoglar ikkinchi sinf o`quvchilarning psixologik-fiziologik xususiyatlari, musiqaga bo`lgan qiziqishlariga asoslanib (bu yoshdagi bolalar diqqati uncha turg`un bo`lmaydi, ular serharakat va o`yinga ko`proq moyil bo`lishadi) darsda musiqiy faoliyatlarni tez-tez almashtirib turushni maqbul bilishadi.

Tinglangan asar mavzusi asosida rasm chizish, eng muhim xususiyatlarini tahlil qilish, asarni texnika vositasida tinglash, har xil ijrolarni taqqoslash, bir asarni turli sur`atda tinglab ko`rish, musiqaga mos yangi harakatlar topish kabilar o`quvchilarni musiqaga qiziqishini oshiradi, musiqiy idroki, qobiliyatlarini rivojlanishiga samarali ta`sir etadi.

- 3-4-sinflarda o`quvchilar musiqiy madaniyati anchagina shakllangan bo`ladi. Bu ularning diqqat-etibori turg`unlashgani, xotirasi ancha o`sgan, nutqi, hayotiy va musiqiy (kuylash, tinglash, turli harakatlarni bajarish) tajribasi oshganligida ko`riladi. Yana bir muhim xususiyat, bu yoshdagi bolalar o`quv faoliyatining ichki mazmuniga qiziqib nazariy bilimlarni amalda qo`llay olish imkoniyatlariga ega bo`ladilar. O`quvchilarni musiqaning umumiy xarakteri, kayfiyatini “g`amgin-quvnoq”, “chaqqon-

sekin”, “past-baland”, marsh, qo`shiq, raqs sifatida idrok etadilar, contrast obrazlarni yengil farqlaydilar.

3-4-sinflarda o`quvchilarga dastur asosida ko`proq xalq musiqasining ommaviy janrlariga, shuningdek, xor, orkestr ijrosida asarlar tinglash tavsiya etiladi. Ular yakkanavoz, jo`rnavoz cholg`u dastasi, orkestr, xor jamoasi ijrosidagi variantlarni tinglashlari maqsadga muvofiq bo`ladi.

Musiqani tinglab idrok etishda o`qituvchi o`quvchiga doimiy ravishda yordam berib boradi. Musiqiy tahlil musiqa tinglagandan olingan hissiy ta`sirni chuqurlashtirishga qaratilishi lozim.

Musiqiy obrazlarni taqqoslash-qiyoslash usuli musiqiy idrokni rivojlantirishda muhim rol o`ynaydi.

Beshinchi sinfda musiqa tinglash asosan uch faoliyat negizida-musiqa tinglash, qo`shiq kuylash va musiqa savodi faoliyatlari uyg`unligida amalga oshiriladi.

O`quvchining musiqa tinglash, tahlil qilish, nazariy tushunchalarni o`zlashtirishlarida boshlang`ich sinflarda egallangan musiqiy-nazariy zahiraga tayangan holda, musiqiy idrokni yanada takomillashtirib borish asosiy maqsad bo`lib qolaveradi.

Beshinchi sinf o`quvchilari murakkab ichki dunyo, his-tuyg`ular, emotsional kechinlamarga boy muhabbat mavzulari, qahramonlik ruhidagi, shuningdek, ancha jiddiy, lirik, xalqchil musiqalarni eshitishga moyil bo`ladilar. Shuning uchun musiqa tinglash uchun asarlar tanlashda o`zbek, qardosh va jahon xalqlarining mumtoz asarlari, murakkab janrlardagi opera, balet, simfonik asarlarga murojaat qilish o`quvchilarni mushohada qilish qobiliyatlari, musiqiy obrazlar va ularning to`qnashuvlari, ziddiyatlari, motivlar kurashi, dramatik rivojlanishlar haqidagi tushunchalarni kengaytiradi.

Oltinchi sinfda tinglash va tanishish uchun tavsiya etilgan asarlar juda ham boy va serqirraligi bilan ajralib turadi. O`quv dasturi va darsligiga kiritilgan asarlar o`zbek mumtoz musiqasi, zamonaviy musiqa, sharq xalqlari mumtoz musiqasi namunalari va Yevropa mumtoz musiqasining eng noyob durdonalaridan tashkil topgan bo`lib, bunday asarlarni tinglash albatta texnik vositalar orqali amalga oshirilishini taqazo etadi. O`z-o`zidan bunday asarlarni o`qituvchining yakka cholg`uda ijro etishi juda qiyin bo`lishi bilan birga yirik janrdagi musiqalarni orkestr (simfonik orkestr, milliy cholg`u asboblari, Estrada jamoalari) jo`rligida eshitish o`rnini bosa olmaydi va o`quvchilarda kerakli emotsional taassurotlarni uyg`ota olmaydi.

Sharq xalqlari mumtoz musiqalari namunalarini tinglaganda o`qituvchi sharq xalqlari milliy-mumtoz musiqasidagi mushtarak jihatlari, turdosh-o`xshash cholg`ular va janrlar, an`analar, raqslar, kuylashlardagi eng muhim o`xshash, o`ziga xoslik xususiyatlar haqida suhbat, tushuntirish jarayonida nazariy ma`lumotlarda albatta to`xtalib o`tishi lozim bo`ladi. Aytish joizki, sharq xalqlari mumtoz musiqasi haqida darslikda berilgan ma`lumotlar o`quvchilarda zarur tushuncha hosil qilish imkonini bermaydi.

Xuddi shu aytilgan fikrlarni 7-sinf o`quv materiallariga ham bevosita daxldor desak aslo xato bo`lmaydi:

1-chorak: Qashqadaryo-Surxondaryo, Buxoro-Samarqand vohalari musiqiy uslublari bilan tanishuv;

2-chorak: Farg`ona-Toshkent, Xorazm vohalari musiqiy uslublari bilan tanishuv;

3-chorak: Maqom, Shashmaqom haqida;

4-chorak: Xorazm maqomlari, Farg`ona-Toshkent maqom yo`llari;

Ko`rinib turibdiki o`quv materiallari juda keng ko`lamli va hajmdagi bilim, tushunchalarni qamrab olgan. Bu mavzulardagi o`quvchilar egallashi lozim bo`lgan bilim va tushunchalarni ularga yetkazishni faqatgina dars

jarayonida amala oshirish qiyin va iloji yo`q. Bu o`rinda o`qituvchi qo`shimcha qulay imkoniyatlarni qidirishi, o`quvchilarni mustaqil bilim olishlari, sinfdan tashqari mashg`ulotlarda qatnashishlari kabilardan ustalik bilan foydalanishi lozim bo`ladi . Fikrimizni asoslash uchun bitta misolni keltirishimiz mumkin . Maqom turkumiga kiruvchi bir asarni (kuy, qo`shiq) tinglash, uni ijro etish (musiqani tinglash, tahlil qilish, o`qituvchining u haqdagi tushunchalari) uchun 1 soatlik dars kamlik qiladi. Bu yerda ortiqcha izohga ham hojat yo`q asli .

Bu o`rinda o`qituvchi mashg`ulotlarni yo`lga qo`yishda, to`garaklar faoliyatidan foydalanishi , ijodiy jamoalarga “sayohat darslari” uyushtirilishi , madaniy- ommaviy tadbirlarda taniqli sa`natkorlardan, o`zbek xalq musiqa ijodi, maqom , shashmaqom, folklor san`ati haqida suhbat-konsertlar ma`ruza-konsertlar uyushtirish maqsadga muvofiq bo`ladi . Yuqori (5-6-7-sinflar) sinflarda o`quvchilar uchun uyga beriladigan vazifalar ahamiyatlidir. Biz o`z tadqiqotimiz jarayonida o`qituvchilarga o`quvchilarni qiziqishlarini sinchiklab o`rganish va shunga ko`ra ularga simfoniya, kantata, operalardan, maqom kuy-qo`shiqlaridan, mahalliy uslublarga mansub namunalardan tinglashga berishni tavsiya qildik. Hozirda magnitofon, video, audio, kompyuter kabi texnik vositalar kirib bormagan xonadon yo`q hisobi. Shuning uchun o`quvchilarga oddiy CD kassitalariga ta`kidlab o`tilgan yirik janrlarga tegishli musiqiy asarlarini yozib berish va uni uyda qayta tinglash va u haqdagi taassurotlarini yozib kelish vazifalarini topshirish samarali usullardan sanaladi. O`quvchilar tomonidan mustaqil tinglangan asarlarni dars jarayonida birgalikda tahlil qilish ham foydali va maqbul ish usullaridandir. Bu usullarning ahamiyatini anglashda Yaponiya musiqa ta`limining “Sudzuki metodi” ga murojaat qilish mumkin. Bu metod mohiyatida ona tilini o`qitilishi musiqa tinglab idrok etish bilan amalga oshiriladi. Bolani cholg`u asbobida kuy chalishi, o`zi ijro etadigan musiqani

ko`proq eshitishi va bunda musiqa mutaxassisi bo`lmasa ham onaning ishtirokini yetakchi omil deb hisoblash yotadi. Sudzuki ta`limotiga ko`ra onalar musiqa ma`lumotiga ega bo`lishi shart emas, shunday bo`lsa-da, ularni musiqa mashg`ulotlarida ishtiroki oilada gramyozuv, televideniya, konsertlarda tinglangan asarlarni birgalikda muhokama qilishi muhim hisoblanadi. Bunda bog`cha, maktab, oilaning hamkorligi ham katta ahamiyat kasb etadi. Hatto, Sudzuki bolakaylarni ham bevosita “Sirtqi” tarzda o`qitmoqda. 5-6-yoshli bolalarni Betxoven sanatalarini chalishga erishishlari bu metod (Ta`limotni) ni naqadar yuqori samaradorlikga ega ekanligini ko`rsatadi.

Maktablarda musiqa o`qituvchilari bu kabi metodlardan, mavjud shart-sharoit, imkoniyatlarga ko`ra unumli foydalanishi, jahon ta`lim tizimida qo`llanilayotgan samarali tajribalarni o`z pedagogik faoliyatida tadbiq etish va doimiy ravishda o`z mahoratini oshirib borishi musiqa ta`limining sifat-samaradorligini ta`minlashda ijobiy yutuqlarga erishish imkonini beradi.

Ikkinchi bob bo`yicha xulosalar.

Musiqa ta`limi va tarbiyasi yo`lga qo`yilgan ta`lim muassasalaridagi o`quv-tarbiya jarayonlarini kuzatish va tadqiqot muammosi yuzasidan olib brogan izlanishlarimizda shu narsa ayon bo`ldiki, musiqa ta`limi va tarbiyasida, o`quvchi-yoshlarni musiqiy madaniyatini qay darajada shakllanganligini belgilashda ularni musiqani idrok etish malakalari asosiy omil bo`lib hisoblanadi. Chunki, musiqiy qobiliyatlar, kerakli darajadagi bilim, ko`nikma va malakalar musiqani qanday, qanaqa, qay tarzda idrok etilishi orqali namayon bo`ladi, ya`ni biz o`quvchining musiqiy bilim, ko`nikma va malakalarini qay darajada rivojlanganligini o`quvchining musiqa mazmuni, mohiyatini, xarakteri, kayfiyatini, musiqiy obrazni, voqeylikni, muallif g`oyasini, kechinmalarini his etishi, saviyasi past va

yuksak ijod namunasi bo`lgan asarlarni farqlashi, baho berishi, munosabat bildirishi, asarlarni tinglab tahlil qila olish, kabi ko`plab fazilatlarini amalda namayon qilishlariga qarab bilishimiz mumkin. Bu fazilatlar esa umumiy tarzda o`quvchining musiqiy idrokini muayyan darajasini belgilovchi sifatlarini tashkil etadi.

Musiqqa darslarida o`quvchilarni qo`shiq kuylashga o`rgatish, turli janr, xarakter, mavzulardagi zamonaviy, xalq qo`shiqlari, kompozitorlik ijodi namunalari, qardosh va chet el musiqalari bilan tanishtirib borish asosan musiqiy asarni tinglash orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonda o`quvchi musiqqa savodi, yoki, qo`shiq kuylash, bolalar cholg`ularida ijro etish, musiqaga mos ritmik va raqs harakatlarni bajarish bo`lmasin avvalo, musiqqa tinglaydi va so`ngra amaliy faoliyatga kirishadi, nazariy, amaliy bilim ko`nikma, malakalari va eng muhimi musiqani idrok etishi ya`ni, musiqiy idroki rivojlanib boradi.

Bundan shunday xulosa chiqadiki, musiqqa ta`limi va tarbiyasi uchun mas`ul pedagog-murabbiylar o`z vazifalarini faqatgina tor doirada cheklanib qolmasligiga (Qo`shiq o`rgatsam bo`ldi, musiqqa tinglanadi, u haqda ma`lumot va tushunchalarni berish) va o`quvchilarni musiqani anglash, tushunish, obrazli tasavvur etish, muhohada qilishi, u haqda fikr bildirish, baho berish, farqlash, tahlil qila bilish kabi sifatlarini qay darajada o`zlashtirib borayotganliklariga asosiy diqqat etiborini qaratmog`i kerak. Bu o`rinda qo`llaniladigan metodlar, foydalaniladigan vositalar ham muhim ahamiyat kasb etishini nazarda tutgan holda ish tutmoqlilari, oxir-oqibatda musiqqa ta`limi va tarbiyasi oldiga qo`yilgan asosiy maqsadga erishishni kafolatlaydi.

III-BOB: Musiqa tinglash faoliyatida musiqiy idrokni shakllantirish amaliyoti va uning samaradorligi.

3.1. musiqa tinglash jarayonida musiqa idrokini shakllantirish yuzasidan amaliy tajribalar mohiyati.

Umumta`lim maktablarining “Musiqa madaniyati” darslarida o`quvchilarning musiqani tinglash, tahlil qilishlari va u haqdagi kerakli ma`lumotlar bilan atroflicha tanishishlari va bu jarayonda ularning musiqani idrok etish ko`nikma va malakalarini shakllanish darajasida bo`ladigan o`zgarishlarni aniqlash tadqiqot muammosi yuzasidan olib borilgan amaliy tajriba ishlarimizning mazmuni va mohiyatini belgilaydi.

Musiqa asarlarni tinglash va tahlil qilish jarayonida o`quvchilarning musiqa idrokini rivojlantirishga yo`naltirilgan faoliyat quyidagicha belgilandi:

1. Musiqiy asarni bolalar qiziqishi va musiqiy tayyorgarliklari (musiqani diqqat bilan eshita bilish, asar xarakteri, janr xususiyatlarini farqlay olish va hokazo) va imkoniyatlariga mos bo`lishligiga qaratish;
2. Tanlangan asarlarni tinglovchi (o`quvchilarga)larga badiiy-emotsional ta`sir etish xususiyatiga egaligi, ya`ni, tarbiyaviy-tasirchanligi va yuksak ijod namunasi bo`lishligiga etibor berish;
3. Asarlarni o`qituvchi ijrosida mahorat bilan ijro etilishi yoki uning musiqiy yozuvi (magnitofon, audio, video yozuvlari) yuqori malakali ijrochi sozanda yoki ansambl, xor jamoasi ijrosi bo`lishi kabilarni hisobga olish;
4. Asar haqida qo`shimcha ma`lumotlarni mazmunli, amaliy misollar, ko`rgazmali va texnik vositalar yordamida yetgazilishi;
5. Ma`lumotlarda bir xillikdan qochish, ularni samarali ish uslublari, vositalar yordamida tashkil qilish;
6. O`quvchilarni musiqa to`garaklariga keng jalb qilish va sinfdan

tashqari faoliyatlarni uyg`unligiga erishish.

Mana shunday tarzda tashkil etilgan darslar jarayonida o`quvchilarni musiqa darslariga, o`rganilayotgan mavzularga, musiqa asarlarini tinglash, tahlil qilish, u haqda ko`proq ma`lumotlar olishga, qo`shiqlarni ishtiyoq bilan o`rganish, kiylashga bo`lgan munosabatlarida ijobiy o`zgarish tez fursatda namayon bo`lishini va bu narsa o`z navbatida o`quvchilarning musiqani idrok etish ko`nikma va malakalarini rivojlanishiga o`z ta`sirini o`tkazishiga ishonch hosil qildik.

Tabiiyki musiqa darslarini yuqori saviyada tashkil qilish, uyushtirish va o`tkazish ko`p jihatdan o`qituvchining kasbiy tayyorgarligi, izlanuvchanligi, pedagogik mahorati va darsda qo`llaydigan uslublariga bevosita bog`liq bo`ladi. Shu bois ham biz o`zimizning amaliy tajribalarimiz boshlanishida tajriba, sinov obyektlari sifatida tanlangan maktablarning musiqa o`qituvchilarining o`z tadqiqotimiz maqsadi, mazmuni, mohiyati bilan batafsil tanishtirdik, bir nechta ko`rgazmali sinov darslari o`tgazdik. Shu jumladan ularga o`zimiz tomonimizdan ma`qul deb topgan ish usullarini tavsiya qildik va darslarni doimiy nazorat qilib bordik.

Biz amaliy tajribalar jarayonida o`quvchilarning musiqiy idrok ko`nikma va malakalarini shakllantirishga yo`naltirilgan mashg`ulotlarni, ya`ni, tajriba sinov ishlarini tajriba sinflari (guruhlarda) da davom ettirdik.

Tajriba sinov ishlari davomida qo`llanilayotgan ish uslublarini samaradorlik xususiyatlarini aniqlash, ularning yangi-yangi turlarini sinab ko`rishga muyassar bo`ldik. Bu ishlarning barchasi ilmiy tadqiqotimiz farazini amalda o`z isbotini topishida eng muhim jihatlaridan bo`ldi desak xato bo`lmaydi.

Tajribalar davomida o`quvchilarni psixologik holatlariga alohida ahamiyat qaratildi. Bunda musiqa asarlarini diqqat bilan tinglashda sabr-toqatli bo`lish, kuy va qo`shiq tarkibiy tuzulishiga xos bo`lgan elementlarni

sezish, his etish, ular haqida fikr bildirishadi va yuqori darajada sezgiga ega bo`lishlari-tovushlar baland-pastligi, ohangni tembr dinamikasi, sezish kabilar shular jumlasidandir.

Tadqiqod muammosi yuzasidan olib borilgan ilmiy izlanishlar kuzatuvlar soha mutaxassislari bilan o`tgazilgan suhbat, savol-javob, ilg`or tajribalarni o`rganish, ularni yanada samarali yo`llarini izlab topish, amaliy tajriba jarayonida qo`llash va natijalarni taqqoslash bizning tadqiqotimiz davomida shakllangan ish usul, shakl, vositalarining ma`lum bir tizimda muvofiqlashgan o`ziga xos metodik texnologiyasi bo`ldi deyish mumkin.

Albatta, tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda dastlab biz tomonimizdan ta`lim jarayonida qo`llanilgan metodlarni qay darajada samaradorlikka ega ekanligini aniqlovchi tajriba-sinov ishlarini o`tkazish obyektlari, muddati, rejasi va dasturi ishlab chiqildi. Shu bilan birga o`quvchilarning musiqani tinglash va tahlil qilish jarayonida ularning musiqani idrok etish ko`nikma va malakalarini shakllantirishdagi o`zgarishlarning sifat darsjasini aniqlovchi mezonlarni ishlab chiqishga asosiy etibor qaratildi.

Tajribalar Samarqand shahridagi 26-son umumiy o`rta ta`lim maktabi, Urgut tumanidagi 33-sonli umumta`lim maktablarida olib borilishi yo`lga qo`yildi. Ushbu ta`lim muassasalarida maktab rahbariyati, musiqa o`qituvchilari bilan kelishgan holda olib boriladigan tadqiqot maqsadi, mazmuni mohiyati haqida batafsil tushuntirib berildi. Har ikkala dargohda tajriba sinflari (guruhlari) va ularga mos ravishda nazorat sinflari tanlandi.

Tajriba va nazorat sinflaridagi ta`lim jarayonining farqi nazorat uchun tanlangan sinflarda musiqa darslarida musiqa tinglash faoliyati maktab musiqa o`qituvchilarining amaliy faoliyatida qo`llanilib kelingan an`anaviy metodlar asosida olib borildi. Tajriba sinflarida esa biz o`qituvchilarga o`zimiz tomonimizdan tanlangan va respublika, chet el tajribasida

o`rganilgan ish usul va vositalari, pedagogik yondoshuvlar, dasturlar asosida mashg`ulotlarni olib borilishi yo`lga qo`yildi va mashg`ulotlar tajriba-sinov jarayonida doimiy ravishda biz tomonimizdan kuzatilib, nazorat qilib borildi. Bu o`rinda dastlabki bosqichda bir necha darslarni bevosita o`zimiz o`tkazishimizga to`g`ri keldi va musiqa o`qituvchilariga har darsning rejaloyihasini tuzushda, musiqa darsining har bir faoliyatini metodik tashkil qilishda, xususan, musiqa tinglash faoliyatida o`quvchilarning musiqani idrok etish ko`nikma va malakalarini shakllantirishga yo`naltirilgan ta`limiy va tarbiyaviy vazifalarga ustivor ahamiyat berib borishlari nazarda tutildi.

O`rganilgan ko`pgina ilmiy tadqiqot ishlarida bo`lgani kabi biz ham tajriba-sinov ishlarimizni uch bosqichda amalga oshirishni ma`qul deb topdik.

1. Tajriba-sinov ishlarining tayyorgarlik bosqichi. Bu bosqichda birinchi galda tajriba-sinov ishlarini olib borilishining tartibi, dasturi, mazmuni (sinflar, o`tiladigan mashg`ulotlar mavzulari, mavzularni o`tishda qo`llaniladigan uslublar, shunga muvofiq ishlab chiqariladigan dars ishlanmalari va hokazolar) belgilandi va zarur tashkiliy ishlar amalga oshirildi.

2. Shakllantiruvchi bosqichda tanlangan o`quv muassasalaridagi sinflar kesimida musiqa darslarining o`quv-metodik adabiyotlari-davlat ta`lim standartlari, o`quv dasturlari, o`quv rejasi, qo`llanmalar tahlil qilindi. Tajriba mohiyatini musiqa o`qituvchilariga va o`quvchilariga yetkazish bo`yicha ishlar amalga oshirildi, o`qituvchilarga biz tomonimizdan muayyan tizmga keltirilgan tavsiyalar taqdim etildi va shu asosda ishlarni bajarishga amaliy jihatdan kirishildi.

3. Yakunlovchi bosqich. Bu bosqichda ishlab chiqilgan (umumlashtirilgan, shakllantirilgan, boyitilgan) maxsus metodika tajriba-sinov jarayonida tekshirib ko`rildi. Tajribaviy mashg`ulotlar va oraliq

nazorat-tahlillar jarayonida ularga zarur o`zgartirishlar kiritilib borildi, va nihoyat tajriba va nazorat sinflarida (guruhlari) erishilgan natijalar taqqoslanib (natijalar sinov boshidagi va oxiridagi ko`rsatgichlarni taqqoslash orqali aniqlandi) maxsus metodika asosida statistik tahlil etildi hamda natijalar umumlashtirildi.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida biz o`zimizning ilmiy-tadqiqot ishimizning maqsad va vazifalari mohiyatidan kelib chiqqan holda ilmiy farazlarimizni qay darajada yuzaga chiqishini ko`zda tutgan holda ta`lim muassasalaridagi o`qituvchi-murabbiylar, ixtisoslashtirilgan musiqa maktablari, maktabdan tashqari ta`lim muassasalarining musiqa sohasi bo`yicha faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, ota-onalar bilan suhbatlar olib bordik, ularning maslahat va tavsiyalarini maqul topilganlarini amaliyotga tadbiiq etdik.

Tajriba-sinov ishlarini olib borish va natijalarni tahlil qilishda o`quvchilarning musiqy idrokini rivojlanganlik darajasini aniqlovchi mezonlar ishlab chiqildi. Mazkur mezonlarni belgilashda ham yuqori malakali (ilmiy salohiyatli pedagog-olimlar, tajribali pedagog-murabbiylar, mutaxassis-metodist o`qituvchilar) bilan maslahatlashildi va ularning foydali fikr-mulohazalari etiborga olindi.

Musiqiy idrok etish ko`nikma va malakalarini aniqlashda quyidagi o`nta yo`nalish bo`yicha o`quvchilarning bilim, tushuncha, amaliy ijrochilik bo`yicha javoblari, tushuncha-sharhlashlari, ko`rsatib (ijro etib) berishlari, musiqani mushohada qilish qobiliyatlari inobatga olindi:

1. Musiqani diqqat bilan tinglashi va uning kayfiyatini anglashi.
(xarakteri-sho`x, mungli, tantanali, raqsbop va h,z)
2. Musiqaning metro ritmini his etishi-asar ijrosiga qadam tashlash, chapak yoki bolalar cholg`u asboblarida jo`r bo`lish.
3. Asar janrini aniqlash malakasi-qo`shiq, raqs, marsh, bastakorlik

yoki kompozitorlik ijodiga xosligi (pyesa, qo`shiq, folklor asari, simfoniya, opera, syueta va h,z)

4. Musiqa asarini shaklini aniqlay bilishi-bandli-naqoratli, murakkab tuzilishli, sonata, variatsiya va hakazo.

5. O`zbek musiqasining mahalliy uslublarini farqlashi, o`xshash, farqli tomonlariga (asar tinglash orqali) izoh bera olishi.

6. Asar g`oyaviy-badiiy mazmunini (asar matni) tushunishi, unga o`z fikr-mulohazalarini (ta`rif) bildirishi:

7. Bir asarni turli variantlarini taqqoslay olishi, baho berishi (musiqiy didi) malakasi:

8. Lad-tonallikni his etishi (major-minor)

9. Asarni ifodaviy vositalariga ko`ra nazariy tahlil qilish malakasi.

10. Asar mualliflari, yaratilish tarixi, mashhur ijrochilari haqidagi bilim va tushunchalari (musiqa adabiyoti, tarixi).

Ushbu mezonlarga asoslangan holda o`quvchilarning musiqani tinglash va idrok etish ko`nikma va malakalarini baholashda ularni to`rtta daraja bilan belgilash lozim topildi;

1. Yuqori daraja-qo`yilgan savollar bo`yicha o`z-bilim, tushunchalarini tushunarli, ishonchli, dalillar orqali ifodalay oladi, amaliy jihatdan tahlil qilib, o`z fikrlarini misollar orqali dalillay oladi.

2. Yaxshi (o`rta) darajada-musiqani xarakteri, janrini yaxshi his etadi, nazariy tahlili va amaliy ijroda noaniqliklarga yo`l qo`yadi, eng muhimi unda o`z bilim, ko`nikma va malakalarini takomillashtirish imkoniyati mavjud, intiluvchan.

3. Qoniqarli daraja-musiqani (kayfiyatni) his etmaydi, qiziqishi o`rta darajada, savollarga javoblari to`mtaroq, asoslay olmaydi, nazariy bilim va tushunchalarida ham noaniqlikka yo`l qo`yadi, eng muhimi musiqa san`atiga

munosabatida o`zgarish yasashga intilishi, ishtiyoq ko`zga tashlanmaydi, ularni yaxshi tomonga o`zgartirish mumkin, ko`proq tinglash talab etiladi.

4. Past (qoniqarsiz) daraja- musiqa san`atiga shunchaki ermak, gungul xushlik, dam olish, bush vaqtni o`tkazish vositasi deb biladi. Fan yoki san`atni boshqa turiga qiziqadi, musiqaga munosabati yengil, nazariy bilimlari, amaliy ijrochilik malakalari shakllanmagan, savollarga javoblari, “ha”, “yo`q” kabi qisqa va noaniq. Darsda ham doimiy tazyiq va o`qituvchi kuzatuvchi ostida bo`ladi.

Shu tariqa savollarga javoblari yuqori deb topilgan o`quvchilarning musiqani idrok etish malakalari umumiy tarzda 10-ballik tizim va 8-10-ball bilan o`quvchilarni 10-ta savol bo`yicha musiqiy-nazariy bilimlarni o`zlashtirishi, musiqiy didi, o`z fikr-mulohaza, tushunchalarini ifodalay olishlari, musiqiy mushohada tafakkurlari yaxshi bahoga loyiq deb topilganlari 5-7 ball, musiqiy idroki yaxshi shakllanmagan, ya`ni 10-ta savol bo`yicha tushunchalarini aniq, tushunarli ifoda eta olmagan, nazariy (tahlil) bilimlari ham nochor, asar g`oyaviy-badiiy mazmuni haqida fikrlari palapartish, yoki qisqacha “ha”, “yo`q”, “bilmayman” degan javoblar bilan cheklangan o`quvchilarga 4-6 ball ko`rsatkich bilan baholandi. Javoblari noaniq, nazariy bilim va amaliy ijrolari shakllanmagan (namoyish etolmagan) o`quvchilar javoblari 0-4 ball bilan baholandi.

O`quvchilarning musiqiy idrokini shakllanganlik darajalarini belgilovchi 4-ta darajasi bo`yicha natijalarni aniqlashda 10-ta yo`nalishda o`quvchilar to`plagan (ularni baholash) ballar 86-100 ballni tashkil etsa “yuqori” daraja deb, agar, 71dan 85ballgacha to`plasa “yaxshi” darajaga loyiq, agar 56 dan 70 ballgacha to`plasa “qoniqarli”, agar undan kam ball to`plasa “qoniqarsiz” javoblarga tayanildi. O`quvchilarning musiqiy idrokini rivojlantirish omillari yuzasidan o`tkazilgan suhbatlarda o`qituvchilarga quyidagicha takliflar, tavsiyalar berildi:

1. Musiqa o`qituvchisi va o`quvchilar o`rtasida avvalo, yaxshi ijodiy munosabatni yaxshi yo`lga qo`yish;
2. Dars jarayonida musiqiy-nazariy bilimlarni o`quvchilarga yetkazish asosiy maqsad bo`lsa-da, bu o`rinda o`quvchilarda faol qiziqishni vujudga keltirish, darslarni qiziqarli tarzda o`tkazilishi musiqiy-nazariy bilimlarni o`zlashtirish va shu orqali ularda haqiqiy “musiqa madaniyati”ni shakllantirishning asosiy omili ekanligini nazarda tutgan holda ish tutsh;
3. Darslarni tashkil etish, uyushtirishda “bir xil”likdan qochish, ilg`or ish usul, vositalari, pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish;
4. Imkoni boricha ko`rgazmali va texnik vositalardan ko`proq foydalanish;
5. Har bir dars oldingi darsning uzviy davomi sifatida bo`lishligiga erishish;
6. Sinf va sinfdan tashqari faoliyatlar uyg`unligini ta`minlasj;
7. O`quvchilarda mustaqil ishlash ko`nikmalarini rivojlantirib borish;
8. O`quvchilar bilimi, amaliy ijro va uy vazifalarini baholashda bag`rikenglik qilish, ularning har bir faoliyatiga izoh berish, yutuqlar rag`batlantirilib, kamchiliklarni bolalarni ranjitmaydigan tarzdagi tanbehlar bilan olib borish;
9. O`quvchilarni ota-onalari bilan yaqin hamkorlikni yo`lga qo`yish;
10. Qoloq o`quvchilarni a`lochi o`quvchilarga yaqinlashtirish, do`stona yordamni yo`lga qo`yish.

Tajriba-sinov ishlari davomida amaliy jarayonning kamchilik va yutuqlari, vaziyat taqazosiga ko`ra vujudga kelgan qiyinchiliklar xususida, ularni bartaraf etish yuzasidan fikr almashinib, zarur chora-tadbirlar ko`rib borildi.

3.2. Tajriba-sinov ishlarining natijalari.

Musiqqa madaniyati darslarida o`quvchilarni musiqqa tinglash, tahlil qilish jarayonida (to`g`rirog`I barcha musiqiy faoliyatlarda) musiqani idrok etish ko`nikma va malakalarini shakllantirishga yo`naltirilgan pedagogik faoliyatda qo`llaniladigan o`ziga xos va umumlashtirilgan metodikaning nazariy asoslarini tadqiqot maqsadiga muvofiq holda ishlab chiqish eng asosiy vazifalardan bo`ldi.

Bu o`rinda quyidagi jihatlar: mazmun va mohiyati belgilandi.

1. Tajriba-sinov ishlarining maqsadi.

- umumta`lim maktablari "musiqqa madaniyati" predmetining o`quv rejasiva 1-7-sinf darslaridan o`rin olgan o`quv materiallari, tavsiya etilgan asarlarni tadqiqot maqsadidan kelib chiqib tahlil qilish, tadqiqot vazifalariga muvofiqlashtirish;

- tajriba-sinov ishlarini o`tkazishning o`ziga xos mexanizmini ishlab chiqish va tajriba jarayonida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etib, takomillashtirib borish;

- qo`llanilgan metodikani samaradorligini belgilovchi omillarni aniqlash, asoslash va shu asosda ilmiy dalillangan tavsiyalar ishlab chiqish;

2. Tajriba-sinov ishlarining vazifalari.

- tajriba-sinov obyektlarini aniqlash, tajriba va nazorat guruhlari (sinflar) va ularda ishtirok etuvchi o`quvchilar sonini belgilash;

- amaliy tajribalar davomida umumta`lim maktablarida faoliyat ko`rsatayotgan musiqqa o`qituvchlari, oliy ta`lim professor-o`qituvchilari, olimlarning fikr-mulohazalarini o`rganish, to`plash, tahlil qilish va foydalanish;

- o`quvchilarni musiqiy idrokini shakllanganlik darajalarini aniqlovchimezonlarini ishlab chiqish;

- musiqa tinglash jarayonida o`quvchilarni musiqani idrok etish ko`nikmava malakalarini shakllanishidagi o`zgarishlarni matematik-statistika orqali asoslash.

3. Pedagogik tajriba-sinov ishlarida qo`llanilgan, shakl, vositalar:

- suhbat, savol-javob, tushuntirish, asoslash, tahlil qilish, hikoya, munozara, musiqa asarini tinglash, amaliy ijro, konsertlar, turli ko`rik-tanlovlar, madaniy-ommaviy tadbirlarga qatnashish, tajriba almashish, kuzatish, nazorat qilish va hokazo.

Tajriba sinov ishlari Samarqand shahridagi 26-sonli, Urgut tumanidagi 33-sonli umumta`lim maktablarida tashkil etildi.

Tajriba-sinov ishlarining muayyan bosqichlarida amalga oshirilgan vazifalar mohiyati quyidagicha bo`ldi.

1. **Izlanuvchi tajriba bosqichida**-tadqiqot dolzarbligi, muammolari (ilmiyuslubiy adabiyotlar) o`rganildi:

- tadqiqot mavzusi, asosnoma-rejasi ishlab chiqildi;
- amaliy tadqiqotning tashkiliy-strukturasi, o`ziga xos metodikasi shakllantirildi;

- Tajriba-sinov obyektlari, maydonlari aniqlandi.

2. **Ta`kidlovchi bosqich.**

- tajriba-sinov o`tkaziladigan obyektlarda ishtirok etuvchi o`quvchilar, o`qituvchilar uchun anketa-so`rovlar, tadbiriq etiladigan o`quv materiallari, ish usullari ishlab chiqildi.

- obyektlardagi mavjud holat, o`quv-me`yoriy hujjatlar, ularga ehtiyoj vatalablar o`rganildi.

3. **Shakllantiruvchi bosqich.**

- tajriba va nazorat guruhleri (sinflar) belgilandi;
- tayyorlangan metodika, uslubiy materiallarni sinovdan o`tkazish;
- o`quvchilarni musiqiy idroklaridagi o`zgarishlarni kuzatib borish;

4. Yakunlovchi bosqich.

- olingan natijalar umumlashtirildi, qayta ishlanib, xulosalar chiqarildi;
- tadqiqot materiallari asosida maqolalar, ilmiy ma`ruzalar chop etildi.

Tajriba-sinov ishlarida ishtirok etgan umumiy o`rta ta`lim maktablari o`quvchilari.

Ta`lim muassasalari.	2014-yil. O`quvchilar soni.		2015-yil. O`quvchilar soni.	
	Tajriba sinflari	Nazorat sinflari	Tajriba sinflari	Nazorat sinflari
Sam. Shah. 26-umumta`lim maktabi	34	34	34	34
Urgut tumani 33-umumta`lim maktabi	33	34	33	34
Urgut tumani 35-umumta`lim maktab	28	28	28	28

Jami: 95 96 95 96

Tajriba-sinov ishlari jarayonida tanlangan maktablardagi musiqa o`qituvchilarining musiqa darslarini metodik jihatdan to`g`ri faoliyatlar negizida tashkil etish, dastur va darslikda ko`zda tutilgan bilim va tushunchalarni (mavzular bo`yicha), nazariy ma`lumotlarni o`quvchilarga to`liq yetkaza olishlariga, o`quvchilarni darsga va o`ziga jalb qilish, o`rganlayotgan yoki tyinglanayotgan musiqa asariga qiziqish bilan qarash, musiqa asarini tingash bilan zarur (yuqori boblarimizda ta`kidlab o`tilgan) ko`nikma va malakalarini o`quvchilar tomonidan egallashlariga erishish

yo`lida qo`llaydigan usullari (tajriba-sinovarida biz tomonimizdan tavsiya etilgan uslublar) ham o`rganib borildi. O`quvchilarga berilayotgan nazariy va amaliy ijro, tahlil bo`yicha bilimlar, tushunchalar, ma`lumotlar orqali, tinglanayotgan kuy, qo`shiqlar mazmuni, o`ziga xos xususiyatlari o`quvchilar tomonidan qay darajada idrok etilishi tahlil qilib borildi.

Mashg`ulotlar davomida darslarni sifatli rasmlar, tarqatma materiallar, musiqa cholg`ulari, texnik vositalar bilan ta`minlash bo`yicha ham anchayin samarali ishlar amala oshirildi.

Olib borilgan amaliy mashg`ulotlarda maxsus ishlab chiqilgan talab va nizomlar asosida maxsus ishlab chiqilgan metodikaning samaradorlik darajasi o`rganildi. Mavjud kamchiliklarni bosqichma-bosqich bartaraf etish choralari ko`rildi.

Tajriba-sinov ishlarining yakunlovchi bosqichida o`quvchilarning estetik bilim va tushunchalari, shu asosida musiqani idrok etish darajalari aniqlandi. Olingan natijalar har bir sinf kesimida, tajriba va nazorat sinflari (guruhleri) bo`yicha tahlil qilindi va shundan so`ng umumiy natijalar statistik uslubda yaxlit ko`rinishga keltirildi.

Tajriba sinflarida tahsil olayotgan o`quvchilar turli mavzu va janrlardagi musiqa asarlarini tinglash, o`rganish, kuylash, tahlil qilish hamda u haqdagi bilim va tushunchalarni o`zlashtirish, asarlarning janri, ijro uslubi, xarakteri, lad-tonalligi, tarbiyaviy ahamiyati bo`yicha o`z fikrlarini tushunarli, ravon ifodalay olishlariga erishildi. Mazkur sinflardagi o`quvchilar tajriba darslari davomidagi mavzular bo`yicha asarlarni tinglash, nazariy tahlil qilish va ularga tarqatilgan 10-ta savol bo`yicha o`z fikrlari, tushunchalarini bayon etish, dalillash, amaliy ijro va tahlil qilishda qiyinchilikka duch kelinmadi. (ayrim bo`sh o`quvchilar ham kuzatilgan bo`lsa-da, ularning umumiy natijalari nazorat sinflaridagiga qaraganda yuqori

bo`lgani uchun unchalik sezilmadi, lekin ular o`qituvchilar nazoratida qoldirildi).

Tajriba va nazorat sinflaridagi umumiy natijalar har ikkala guruhlarda ham o`quvchilarning musiqiy idroki, tafakkuri, dunyoqarashi va estetik saviyasida ijobiy tomonga o`zgarishlar bo`lganligi, tajriba sinflarida esa bu o`zgarish nisbatan nazorat guruhlaridan ancha yuqori bo`lganligi ma`lum bo`ldi.

Bularning barchasi tadqiqot nihoyasida tajriba-sinov ishlarining muvaffaqiyatli kechganligi, tadqiqot ishining pedagogik, metodik va ilmiy jihatdan to`g`ri tashkil etilganligi va qo`llanilgan metodikaning o`ziga xos samaradorlikka ega bo`lganligidan dalolat berar edi.

Tajriba-sinov ishlarining natijalari tadqiqotimizning yakuniy bosqichida musiqa darslarida musiqa tinglash va tahlil qilish jarayonida o`quvchilarni musiqani idrok etish ko`nikma va malakalarini shakllantirishga yo`naltirilgan ilmiy tadqiqotchilik faoliyati yuzasidan umumiy xulosalarga kelish va ilmiy asosli tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalarini tahlil qilish, aniqlash va isbotlashda matematik statistika metodi qo`llanildi.

Quyidagi jadvalda tajriba va nazorat guruhlarida o`quvchilarni musiqani idrok etish ko`nikma va malakalarini shakllanganlik daraja-ko`rsatgichi keltirildi.

Tajriba-sinov boshida.

maktablar	Guruhlar (sinflar)	O`quvchilar soni	Musiqiy idrokni shakllanganlik darajasi			
			Yuqori	Yaxshi	O`rtacha (qoniqarli)	Past (qoniqarsiz)
Sam. Sh, 26-maktab	Tajriba	34	6	12	13	3
	Nazorat	34	7	13	11	3
Urgut t, 33-maktab	Tajriba	33	4	15	10	4
	Nazorat	34	5	10	14	5
Urgut t, 35-maktab	Tajriba	28	5	10	10	3
	Nazorat	28	4	10	8	6

191 31 70 66 24

Tajriba-sinov oxirida

Maktablar	Guruhlar (sinflar)	O`quvchilar soni	Musiqiy idrokni shakllanganlik darajasi			
			Yuqori	Yaxshi	O`rtacha (qoniqarli)	Past (qoniqarsiz)
Sam. Sh 26-maktab	Tajriba	34	10	18	6	-
	Nazorat	34	7	15	10	2
Urgut. t 33-maktab	Tajriba	33	8	18	6	1
	Nazorat	34	6	12	11	3
Urgut. t 35-maktab	Tajriba	28	9	11	7	1
	Nazorat	28	6	13	6	3

191 46 87 46 10

O`quvchilarni tajribadan keyingi musiqiy idrokining shakllanganlik darajasi.


3-jadval

Guruhlar	O`quvchilar soni	Musiqiy idrokninh shakillantirish darajasi							
		Yuqori		Yaxshi		O`rtacha (qoniqarli)		Past (qoniqarsiz)	
		t.o	t.k	t.o	t.k	t.o	t.k	t.o	t.k
Tajriba	95	15	27	37	47	33	19	10	2
Nazorat	96	16	19	33	40	33	27	14	8

31 46 70 87 66 46 29 10

To`rtta ko`rsatkich bo`yicha tajriba guruhining “yuqori”, “yaxshi”, “o`rtacha”, “past” darajalarini tajriba – boshida va oxiridagi o`zgarishlarining grafik tasvirlarini ifodalash maqsadida ularga mos diagrammani tuzamiz .

1-diagramma



Natijalarni tajribadan oldingi va keying holatlarini quydagi jadvalda solishtiramiz.

4-jadval

Ko'rsatkichlar	Natijalarning o'rtacha qiymati		“yuqori” va “yaxshi” natijalar samarasi		Ko'rsatkichlarning o'rtacha tarqoqligi	
	t.o	t.k	t.o	t.k	t.o	t.k
	X=3.1	X=4.1	52%	74%	V _x =31%	V _x =14,6

Bu yerda \bar{X} -o`rta arifmetik qiymat hamda V_x variatsiya ko`rsatkichidir.

4. Jadvaldan ko`rinadiki, o`tkazilgan tajriba-sinov ishlaridan so`ng tajribaguruhleri (sinflaridagi)dagi o`quvchilarni musiqani idrok etish ko`nikma va malakalarini shakllanishida yuqori o`sinh yuz bergan.

Jumladan, bu ko`rsatkichlar o`rtacha qiymati $\frac{3,1}{?}$ dan $\frac{4,1}{?}$ ga oshgan, yuqori vayaxshi darajalar salmog`i 521.dan 741.ga oshgan va natijalarning o`rtachaga nisbatan tarqoqligi $\frac{31\%}{?}$ dan $\frac{14,6\%}{?}$ ga kamaygan.

Bularning barchasi o`z navbatida bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishining samarali kechganligini, qo`llanilgan metodikani tadqiqot gipotezasiga mos ilmiy qiymatga ega ekanligini ko`rsatadi.

Olib borolgan kuzatishlar, o`tgazilgan amaliy tajriba-sinovlar va uning natijalari bizga tadqiqot natijalari bo`yicha ilmiy asosli xulosalar chiqarish va tavsiyalarni ilgari surish imkonini berdi.

Uchinchi bob bo`yicha xulosalar:

Umumta`lim maktablarining “musiqa madaniyat” o`quv predmetini musiqa tinglash faoliyatini tashkil etish o`ziga xos pedagogik va metodik ish uslublaridan, yondoshuvlardan, ilg`or pedagogik texnologiyalardan maqsadli va umumli foydalanishni taqazo etadi. Bu o`rinda o`quvchilarni o`quv materiallarini chuqur o`zlashtirishlari zahirida ularni musiqani idrok etish ko`nikma va malakalarini shakllantirish, ularda to`la ma`nodagi musiqa madaniyatini qaror toptirishning asosi hisoblanadi.

Tadqiqotni olib borish, xususan, amaliy tajriba-sinov ishlarida shu narsa ayon bo`ldiki, darsda birlamchi vazifa o`quvchilarni musiqiy-nazariy bilimlarni puxta o`zlashtirishlari bo`lsa, shu jarayonda ularni esetik, axloqiy, ma`naviy tarbiyasini o`stirish, rivojlantirish ushbu vazifani to`la qonli, mazmunli bo`lishini, musiqiy ta`lim va tarbiyani asl mohiyatini belgilovchi omillar hisoblanadi.

Ana shundan kelib chiqqan holda tajriba-sinov darslari jarayonida diqqat e`tibor musiqa asarining tinglash, tahlil qilish, qo`shiq o`rganish, kuylash, u haqdagi qo`shimcha ma`lumotlar bilan tanishish orqali o`quvchilarda musiqiy asarni badiiylik xususiyatlarini-kayfiyatini, xarakterini, yoqimlilikini, saviyasini, ijroning sifatini, mualliflar (bastakor, shoir) g`oyasini, asarning matni, unda ifodalangan voqiylik, obrazlar, hissiy kechinmalar va ularni o`ziga xos ifodaviyligini hamda nazariy bilimlar-lad-tonallik, temp, o`lchov, ritm, dinamik tuslarni bilishi, anglashi, farqlashi, ularga ta`rif bera olishi, baholash, o`z munosabatini bildirishi kabilarga qaratildi. Mana shu jihatlarni o`z mazmunida mujassam etgan metodika o`z navbatida tajriba-sinov ishlari davomida sinovdan o`tkazildi va o`zini oqladi.

Umumiy xulosalar:

1. Ilmiy tadqiqot ishida umumta`lim maktablari musiqa madaniyati darslarida musiqa tinglash va musiqa asarlarini tahlil qilish jarayonida o`quvchilarning musiqa idrokini shakllantirish, ularda zarur ko`nikma va malakalarni hosil qilishning nazariy va uslubiy jihatlari yoritib berildi.

Tadqiqot ishida musiqa tinglash faoliyati musiqiy idrokni shakllanishida eng muhim jarayon ekanligi, ushbu faoliyatda asosiy e`tibor o`quvchilarni musiqani idrok etish ko`nikma va malakalarini rivojlanishiga qaratilmog`i bu jarayonni shu nuqtai-nazardan tashkil etish va yo`lga qo`yish o`ziga xos pedagogik muammo ekanligi asoslandi va tadqiqot natijalarida o`z isbotini topdi.

Ushbu masala bir qator xorijiy mamlakatlar olimlarining ilmiy-tadqiqot ishlarida o`rganilgan va tahlil etilgan. Ammo-bizning respublikamizda ta`limning o`ziga xos tuzulish, mahalliy shart-sharoit, muhit, o`quvchilarning psixologik xususiyatlari, ta`limning milliy xususiyatlariga ko`ra ularni to`g`ridan-to`g`ri o`z faoliyatimizga tadbiiq etish maqsadga muvofiq kelmasligi, ulardan ijodiy foydalanilgan holda hamda o`zimizdagi to`plangan tajribalarni umumlashtirish, maqbul topilgan jihatlarni amaliyotda sinovdan o`tkazish orqali o`ziga xos metodik tizm shakllantirildi.

2. Ilmiy tadqiqot ishimizda musiqa tinglash faoliyatini mavjud holati, pedagogik shart-sharoitlari o`rganildi, o`qituvchilarning ish uslublari, tajribalari, yutuq va kamchiliklari, ularga sabab bo`luvchi omillar tahlil qilindi. Shu asosda samarali usullar, vositalar ishlab chiqildi.

3. Tadqiqot mazmunida musiqa darslarining musiqa tinglash jarayonida o`quvchilarni musiqani idrok etish ko`nikma va malakalarini shakllantirishga yo`naltirilgan pedagogik faoliyatning samaradorligi, musiqiy idrok ko`nikma va malakalarning shakllanganlik darajasini aniqlovchi mezonlar ishlab chiqildi. Tajriba-sinov ishlari jarayonida qo`llanilgan

metodikaning amalda qanday afzalliklarga ega ekanligini bildiruvchi jihatlari o`rganildi va ularni yanada takomillashtirish imkoniyatlari musiqa o`qituvchilarini ushbu faoliyatga ko`niktirish bo`yicha ma`lum targ`ibot ishlari, metodik yordam olib borildi. Musiqa darslarida musiqa tinglash faoliyatini yuqori saviyada tashkil etish, darsda ilg`or pedagogik texnologiyalardan, ko`rgazmali va texnik vositalardan (audio, video, magnit tasmlari, fonotekalardan) umumli foydalanish ko`zlangan maqsadga erishishda muhim o`rin tutishi kabi jihatlarga alohida e`tibor qaratildi.

4. Tajriba-sinov ishlarining yo`lga qo`yilishi, ishlab chiqilgan reja, dastur, hal etilishi lozim bo`lgan vazifalar mohiyatiga ko`ra tanlangan obyektlardagi musiqa ta`limi va tarbiyasini ma`lum darajada yaxshilashga erishildi, qo`llanilgan metodikani ommalashtirish chora-tadbirlari ishlab chiqildi.

Pedagogik tajribalar va ularning natijalari quyidagicha tavsiyalarni yaratilishiga asos bo`ldi:

1. Musiqa darslarida o`quvchilarni musiqa tinglash jarayonida musiqani idrok etish ko`nikma va malakalarini shakllantirishda quyidagi omillarni e`tiborga olish maqsadga muvofiq bo`ladi:

1. Tinglanayotgan musiqa asarini o`quvchilar yoshi musiqiy tayyorgarligi, qiziqishi va ehtiyojlariga mosligiga e`tibor berish.

2. Mavjud pedagogik shart-sharoitlarni hisobga olish, darsda foydalaniladigan vositalar, jihozlar, cholg`ularga e`tibor qaratish.

3. O`qituvchining har bir mashg`ulotga alohida, jiddiy tayyorgarlik ko`rishi, har bir faoliyatda hal qilinadigan masalalarning kechishi elementigacha aniq reja-loyiha, ssenariysini ishlab chiqishi lozim.

4. Musiqa asarlarini mavzu, janr jihatdan xilma-xilligi, qiziqarliligi, tarbiyaviy ta`sirchanligiga e`tibor berish.

5. Darsda fanlararo bog`liqlikdan samarali foydalanish, musiqa

tinglashfaoliyatida o`quvchilarni nazariy va amaliy ijrochilik malakalarini shakllantirish, kerakli ma`lumotlarni o`zlashtirib borishlariga yagona jarayon sifatida qarash;

6. Musiqiy idrokni rivojlantirishni boshqa faoliyatlar mazmunida ham etiborda tutish va yo`lga qo`yish;

7. Musiqa asarini tahlil qilish ishlarini mazmunan boyitib, takomillashtiribborish, qiziqarli va kerakli ma`lumotlarni tanlash va ularni o`quvchlarga yetkazishni samarali uslublarini tanlash;

8. Musiqa darslarida o`quvchilar bilimi, o`zlashtirishi, bu o`rinda ularni umumiy musiqiy rivojlanishini kuzatib borish, rag`batlantirish, tanbehlash ishlarida pedagogik me`yorlarga qat`iy amal qilish;

9. O`quvchilarda mustaqil va ijodiy ishlash, izlanishga rag`bat uyg`otish;

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

1. I.Karimov. “Biz kelajagimizni o`z qo`limiz bilan quramiz”.
-Toshkent, O`zbekiston, 1999-yil.
2. I. Karimov. “Barkamol avlod orzisi”,- Toshkent, O`zbekiston milliyensiklopediyasi. 2000-yil.
3. I. Karimov. “Vatan ravnaqi 32uchin har birimiz mas`ulmiz”.- Toshkent, O`zbekiston, 2001-yil.
4. I. Karimov. “O`zbekiston XXI asr busag`asida”- Toshkent, O`zbekiston, 1999-yil.
5. I. Karimov. “Yuksak ma`naviyat-Yengilmas kuch”. -Toshkent, ma`naviyat, 2008-yil.
6. O`zbekiston respublikasining konstitutsiyasi- Toshkent,O`zbekiston, 2012-yil
7. O`zbekiston respublikasining “Ta`lim to`g`risida”gi qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”-Toshkent, Ma`rifat gazetasi, 1998-yil, 1-aprel.
8. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “O`zbekistonda musiqasan`atini yanada rivojlantirishni qo`llab-quvatlash va rag`batlantirish chora-tadbirlari to`g`risida” farmoni, “O`zbekiston ovozi” gazetasi, 1998-yil 21- oktyabr.
9. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bolalar musiqa va san`at maktablari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularni faoliyatini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to`g`risida” farmoni. Toshkent, 2009-yil.
10. Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar- Toshkent.:O`zbekiston, 2000-yil.

11. Umumta`lim maktablarining musiqa ta`limi va tarbiyasi Konsepsiyasi.: Toshkent, XTV, 1995-yil.
12. Umumiy o`tra ta`limning musiqa fani bo`yicha DTS va o`quv dasturi. (1-7- sahifalar)- Toshkent, Ta`lim taraqqiyoti, 5-7 sonlari, 1999-yil.
13. Azimov. B. Xalq musiqasi vositasida yoshlarni axloqiy tarbiyalash.Ped.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi.1991 yil.
14. A. Hasanov. Maktabda ashula.- Toshkent, O`qituvchi, 1981-yil.
15. Axmedov. M.M. Bo`lajak o`qituvchilarni maktab o`quvchilarida musiqiy nazariy bilimlarni shakllantirishga tayyorlash. Ped.F. N. Olish uchun Disertatsiya 2011-yil.
16. Асафьев Б.А. о хоровой искусстве.-М.:Музыка.1990 г
17. Апраксина О. Методика музыкального воспитание в школе.-.:Просвещение. 1983 г.
18. Эммануэл Э.Э. Эстетическое воспитание учащихся детских музыкальных школб средствами музыки. Автореф. Дис.пед. наук. Ташкент. 1969. г.
19. Estetik tarbiya asoslari. N. Kushayev tahriri ostida. T,; O`qituvchi,1993-yil.
20. Е.Эфрусси. Развитие пианиста.-М.:Музыка, 1975 г.
21. Fayzullayev. E. M. Bo`lajak misiqqa o`qituvchilari badiiy didini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari. Ped.F. N. Ilmiy darajasini olish uchun disertatsiya.T, 2010-yil.
22. Fayzulina. S.X. O`quvchi yoshlarning estetik tarbiyasi. Toshkent.:O`qituvchi, 1998-yil.
23. G. Sharipova. Musiqa o`qitish metodikasi (ma`ruzalar matni).- Toshkent.: TDPU, 2000-yil.
24. Кадцын. Л. М. Музыкальное искусство и творчество

слушателя. Учебное пособие для студентов негуманитарных ВУЗов.-
М.: Высшая школа, 1990 г.

25. Каболевский Д.Б. Как рассказывать детям о музыке.- :
Просвещение. 1987 г.

26. Musurmonova. O. Ma`naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi.-
Toshkent, 1996-yil.

27. Madremov. B. X. Xorazm musiqa folklori vositasida
o`quvchilarniestetik tarbiyalashning pedagogik asoslari. Ped.F. N. Ilmiy
darajasini olish uchun yozilgan disertatsiya.T, 2008-yil.

28. Musiqa o`qitish nazariyasi va metodikasi O`.U.M. Sam Du,
2014-yil.

29. Nurmatov. H. Musiqa va estetik madaniyat. Tavsiyanoma.
Toshkent:TDPI, 1992-yil.

30. Нурматов. Х. Проблемы эстетического воспитания
учащихся начальных классов узбекских песен на уроках музыки.
Автореф. Дис. Пед. Наук. Ташкент, 1982. г.

31. Нажмиддинов Г.М. Формирование профессионального
интереса у студентов музыкально-педагогически факультетов ВУЗов
Республики Узбекистан. Автореф. Дис.пед. наук. Ташкент. 1998.г.

32. Ortiqov. N. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida
o`quvchishaxsini axloqiy shakllantirish Ped.F.Doktori ilmiy darajasini olish
uchun disertatsiya-T.:2000 yil,305 bet.

33. П.Холабузар, В.Попов. Методика музыкального
воспитания.-М.:Музыка. 1990 г

34. Qudratov. I. Talabalarni xalq qo`shlari vositasida estetik
tarbiyalash. Monografiya. T. Fan, 2009-yil.

35. Qodirov. R. Musiqa psixologiyasi.- T, O`qituvchi, 1997-yil.

36. R. Qodirov. Boshlang`ich maktabda ko`p ovozli kuylash.-

Toshkent-G`ulom nomidagi Adabiyot san`at nashriyoti, 1997-yil.

37. Рубенштейн С.Л. Принципы и пути развития психология. М.:Просвещение. 1969 г.

38. Soipova. D. Musiqa o`qitish nazariyasi va metodikasi. O`quv qo`llanma.- T,-Fan va texnologiyalar markazi nashriyoti, 2009-yil.

39. Soipova D. Musiqiy-nazariy bilimlarni o`zlashtirish jarayonida o`quvchi shaxsini shakllantirish. P. F. N. Ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyasi.2006 yil.

40. Umarov.E. Estetika (Nafosatshunoslik). Oliy o`quv yurtlari talabalari uchun o`quv qo`llanma. Toshkent.-O`zbekiston, 1995-yil.

41. Васильченко. О. А. Формирование эстетического вкуса подростков в процесее школьной музыкально хоровой деятельности.Автореф. Дис... пед. Наук. Ташкент. 1991. г.

42. В.А.Сухомленские. Потребность человека в человека.- .:Просвещение. 1981 г

43. Юлдошева С.К. “Развитие музыкального воспитания и образования в Узбекистане”.-Т.:Укитувчи, 1979 г